

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

**ANORGUL ATAJOVA
MUHABBAT JUMANIYOZOVA**

**“ONA TILI VA
ADABIYOT”**

Fanidan

MASHQ VA TESTLAR MAJMUASI

Toshkent-2018

SO‘Z BOSHI

Hozirda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ona tilimizga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. O‘zbek tilining jamiyat a’zolari o‘rtasida qo‘llanish doirasi kengaydi. Bu esa ta’lim muassasalarida o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirish vazifasini qo‘ydi. Ta’limda oldin ko‘proq nazariy masalalar asosiy o‘rinni egallagan bo‘lsa, endilikda tildan amaliy foydalanish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini mustaqil o‘rganish dolzarblik kasb etmoqda.

Mazkur uslubiy qo‘llanma umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash Davlat standartlari dasturi talablari asosida tuzildi. Unda tilshunoslikning fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya leksikologiya hamda morfologiya bo‘limiga oid bo‘lgan nazariy bilimlar bo‘yicha amaliy mashq, test va topshiriqlar o‘z aksini topgan. Bu mashq va topshiriqlarni bajarish yo‘llari ham belgilangan bo‘lib, bunda talab qilingan shartlar asosida ularni bajarishda talabalarning ona tilidan olgan bilimlari yanada mustahkamlanadi hamda ularning o‘z ustida mustaqil ishlashi ta’minlanadi. Testlar ham mavzulashtirilgan tartibda bo‘lib, ular talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini belgilash omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqlik tamoyili asosida mashqlar tarkibiga kiritilgan gaplar, xalq maqollari va hikmatli so‘zlar tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ular yosh avlodning ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin tutishiga diqqat qilindi.

Mashqlar majmuasida talabalarning o‘zbek tili grammatikasi qoidalarini puxta o‘zlashtirishlariga, mantiqiy tafakkurlari rivojlanishi hamda ularning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirishga alohida e’tibor berildi.

Mazkur uslubiy qo‘llanmani tayyorlashda boshqa mualliflar tomonidan oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili o‘qitish bo‘yicha nashr etilgan darslik va qo‘llanmalar, mashqlar to‘plami, shuningdek, o‘zbek tilshunosligidagi nazariy va o‘quv-uslubiy adabiyotlar asos qilib olindi.

FONETIKA

1-mashq. Nutq apparati nima? Nutq a'zolari qaysilar? Ularning vazifasini tushuntiring. Nutq tovushlari nima? Ularning boshqa tovushlardan farqini ko'rsating. O'zbek tilidagi nutq tovushlari haqida ma'lumot bering.

2-mashq. O'qing. Quyidagi gaplarda ostiga chizilgan so'zlarning unli tovuslarini toping va ularni tahlil qiling.

Namuna: a- tilning gorizontaal harakatiga ko'ra til oldi; tilning vertikal harakatiga ko'ra quyi-keng; lablarning ishtirokiga ko'ra lablanmagan unli tovush.

1. Vijdon pokligi va bedorligi asrlar, zamonlar osha inson ma'naviyatining tayanch ustunlaridan biri bo'lib kelmoqda. (I.Karimov.) 2. Daraxtni yer ko'kartiradi, Odamni el ko'kartiradi. (Maqol) 3. E'tiroz bildirgan kishining tovushi supurgi bilan urilgan arining tovushiday birdan o'chdi. (A.Q.)

4. Hovlining to'rt tarafi turlik ehtiyoj binolari bilan va to'rdagi binoning ikki biqini katta uylar bilan o'ralgan bo'lib, bu ikki uyning orasig'a o'lturgan koshinkor va naqshin chorxari ayvon bu hovlining birinchi martaba ko'zga chalinadig'an ortiqliklaridandir. (A.Qod.) 5. Daryoning quyi tomonida ko'ringan sel oqimi o'rkach-o'rkach to'lqinlari bilan yuqoriga qarab bostirib kelardi. (T.Mal.)

3-mashq. Gaplarni o'qing. Ostiga chizilgan so'zlardagi undosh tovushlarni tahlil qiling.

Namuna: d- undosh tovush; hosil bo'lish o'rniga ko'ra til; til oldi undoshi; hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi; sof portlovchi undosh; ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra shovqinli; jarangli undosh tovush.

1. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. (I.Karimov.) 2. Bu gaplarning barini Hafiza xomush va oqilona tinglardi. (Mirm.) 3. Atrofi ko'k panjaralar bilan o'ralgan ulkan bog' darvozasidan kiraverishda uch qavatli shinam bino savlat to'kib turibdi. (J.Abd.) 4. Yo'lchi qishloqdan keltirgan xaltasini kampirga uzatdi. (O.) 5. Dard davosi bilan tarqaladi. (maqol.)

4-mashq. Berilgan gaplarni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tovush tomondan tahlil qiling va ma'nosini izohlang.

1. **Dehqonni** yer davolaydi. Urug' bilan birga orzu, dard-hasrat, **quvonchlarini** ham yerga to'kadi. (S.Nurov.) 2. Gulorning g'oyib

bo'lishi **Yo'lchiga** yashin urgan kabi ta'sir ko'rsatdi. (O.) 3. Zufar **Hakimovichning** yuzida ham endi bezovtalik ifodasi yo'q edi. (P.Q.) 4. Ona mehriga **tenglashadigan** mehr-muhabbat olamda topilarmikan? (Y.Sh.)

5-mashq. Ko'chiring. Gaplardagi so'larni bo'ginlarga ajratib yozing.

1. Rais uning ko'ziga kamsavlatroq ko'rindi. (A.Q.) 2. Anjirlar obdan sarg'aygan, anorlar endi piyoladay bo'lib qizara boshlagan, kechki olmalarga rang kirayotgan, noklar hali ko'm-ko'k nosqovoqlarday osilib turgan fasl edi. (H.G'.) 3. Farzand diydoriga tashna qalbi... Chinobod tomon parvoz qilishga undadi. (A.Nazarov.) 4. O'ktamning sal suzuk ko'zlari endi beixtiyor ravishda hovlida aylanib qoldi. (O.) 5. Qishki imtihon kunlari yaqinlashgandi, dars tayyorlash uchun kechqurunlari fakultetga kelishga to'g'ri keldi. (A.Q.)

6-mashq. O'qing. So'zlarni bo'ginlarga ajrating va quyidagi jadvalga joylashtiring.

<i>Faqat ochiq bo'ginlardan iborat so'zlar</i>	<i>Faqat yopiq bo'ginlardan iborat so'zlar</i>	<i>Aralash bo'ginli so'zlar</i>

1. Bo'ynidan bog'langan tozi ovga yaramaydi. (maqol) 2. Devorlari nurab qolgan hovlining kungay tomonidagi ayvonda keksagina bir xotin kamzuliga tugma qadab o'tiribdi. (S.A.)

3. Amirzodamning so'zlari qulingizga sari toj bo'lsin! Ertagayoq novvoylarga un berib, ochlarga non yoptirib tarqatishni men o'z zimmamga olurman! (P.Q.) 4. Mehmonxona eshigini ochib gugurtni chaqqan vaqtda mehmonxonaning o'rtasida ikki qulochini keng yozib Poshshoxon turardi. (Ch.) 5. Bilib qo'ying, o'rtoq Komilov! haqiqat egiladi, lekin sinmaydi! Kelajak va tarix sizning bu xatti-harakatlaringizni kechirmaydi! (O.Y.) 6. Yigit yalt etib qo'shni dalaga qaradi. U yerda xotin-xalajlar, bola-chaqalar chuvillashib paxta terishayotgan edi. (M.I.)

7-mashq. O'qing. Gaplarni so'zlarga, so'zlarni bo'ginlarga ajratib, bo'ginlarning turi va tuzilishini ayting.

1. Murotali uning soʻzlarini chidam bilan tinglab, uncha ham ishonmaganday boshlarini chayqardi. (Sh.R.) 2. Ayvonda bosma gulli boʻz koʻrpa yopilgan pastakkina tanchada qizlar oʻtirardi. (O.) 3. Toʻgʻri, oʻtgan kuni saharda rasadxonaga kirib kelgan ustod bu toʻgʻrida soʻz ochmadi. (O.Y.) 4. Salohdor fonusni baland koʻtargancha roʻparadagi eshikni ochib unga yoʻl berdi. (O.Y.) 5. Ummatali boshqa gap soʻramadi. Ishini bitkazib egarga mindi-yu, xayr ham demay joʻnab ketdi. (S.A.) 6. – Ishing boʻlmasa kitob oʻqi, husnixat ol: sen kulolning qizi emassanki... (A.Qod.)

8-mashq. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Jadvalni toʻldiring. Har boʻgʻin tuzilishiga koʻra toʻrtta misol keltiring.

2-topshiriq. Soʻzlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

Boʻgin tuzilishi	Misollar
Unli+undosh (VC)	
undosh+unli (CV)	
Unli+undosh+undosh (VCC)	
Undosh-unli-+undosh (CVC)	
Undosh+unli+undosh+undosh (CVCC)	
Undosh-unli+undosh+undosh+undosh (CVCCC)	

9-mashq. Oʻqing. Urgʻu tushgan boʻgʻinlarni aniqlang.

1. Toʻriga quyma tilladan yasalgan oʻymakor kursi oʻrnatilgan salomxona nimqorongʻi edi. (O.Yo.) 2. U, usta Hazratqul bilan xayrlashar ekan, qurilish materiallari olish uchun yordam qilishga vaʻda berdi. Soʻngra, epchillik bilan Boychivorga mindi-yu, Oltinsoyga qarab yoʻl oldi. (Sh.R.) 3. Lekin u otlanib, uyiga qaytayotganda sal hovuridan tushdi-yu, Uzun Hasan aytgan soʻnggi gaplarda achchiq bir haqiqat borligini sezdi. (P.Q.) 4. Xobgohdan ikki xona narida hashamatli tanobiy uyda allaqachon tuzib qoʻyilgan dasturxon Mirzoga muntazir edi. (P.Q.) 5. Koʻksaroyning kungurador devorlari qorongʻida choʻng qoyaday haybatli tuyuladi. (O.Y.)

10-mashq. Gaplarni oʻqing. Urgʻu olmaydigan qoʻshimchalarni koʻrsating.

1. Bahorda o‘ylab ishlasang, Kuzda o‘ynab bajarasan. (maqol) 2. Tanholik – shoirga dil ehtiyoji, xayolga oshnolik – buyuk baxtingiz. (E.B.) 3. Siz menga keraksiz, Men sizga keraksiz. (Jo‘shqin.) 4. – Kuchukchamga uycha yasamoqchiman. (P.Q.) 5. Xuddi amerikaliklar zonasidagi bizning uycha keladi. (D.Kyusak.) 6. Qani ayting, bu qora ko‘zlar neni ko‘zlar. (M.I.) 7. Biz tavakkalchi qimorboz emasmiz. Biz xalq ishonch bildirib saylagan rahbarlarmiz. (Sh.R.) 8. Osmondan mayin, yengil qor uchqunlaydi. Ko‘chalarimiz oppoq bo‘ldi. (O.)

11-mashq. O‘qing. Urg‘u qaysi bo‘ginga tushganini aniqlang.

Akademik, alloma, agronom, benzin, bolalar, botanik, dasturxon, demokratiya, direktor, doklad, dollar, e‘tibor, ekran, elektron, faza, frazeologiya, filarmoniya, Zamira, zona.

12-mashq. O‘qing. Gaplarni o‘qing va mantiqiy urg‘u olgan so‘zlarni aniqlang.

1. Murotali uning so‘zlarini chidam bilan tinglab, uncha ham ishonmaganday boshlarini chayqardi. (Sh.R.) 2. Ayvonda bosma gulli bo‘z ko‘rpa yopilgan pastakkina tanchada qizlar o‘tirardi. (O.) 3. To‘g‘ri, o‘tgan kuni saharda rasadxonaga kirib kelgan ustod bu to‘g‘rida so‘z ochmadi. (O.Y.) 4. Salohdor fonusni baland ko‘targancha ro‘paradagi eshikni ochib unga yo‘l berdi. (O.Y.) 5. Ummatali boshqa gap so‘ramadi. Bir-bir bosib tashqariga chiqdi. (S.A.) 6. – Ishing bo‘lmasa kitob o‘qi, husnixat ol: sen kulolning qizi emassanki... (A.Qod.)

13-mashq. O‘qing. So‘z ma’nosini urg‘u orqali farqlang va ularni qatnashtirib gaplar tuzing.

Bog‘lar, so‘zlar, ko‘zlar, olma, qiyma, ag‘darma, ko‘chamiz, navbatchimiz, oqar, fizik, texnik, hozir, toza, yangi, burun, yara.

14-mashq. O‘qing. Fonetik o‘zgarishlarga uchragan so‘zlarni topib, turini ayting.

1. Shu sababli, biz o‘z mustaqilligimizni qanday qiyinchiliklar bilan, va qanday sinov va suronli kurashlar bilan qo‘lga kiritganimizni yana bir bor eslashimiz o‘rinli, deb o‘ylayman. (I.Karimov.) 2. – Men seni birorta ham kema yeta olmaydigan olis manzillarga olib ketishim mumkin, - dedi ilon. (A.S.Ekzyuperi.) 3. Ko‘cha eshik g‘iyqillab ochilib yopilganidan keyin, Alimardon o‘zini yostiqqa tashladi. (O‘.H.) 4. Qishloq jimib qolgan, paxsa devorlar zax bosib ketgan, hali ko‘milmagan toklar egri-bugri qizg‘ish gavdasini yashirolmay, iymanganday osilib yotardi. (O‘.H.) 5. Anvar yumshoq o‘rindiqli

kresloni Alimardonning oldiga surdi. (O'.H.) 6. O'tgan kuni boshliq Toshkentga ketar ekan, G'iyosovni chaqirib: «Abbosovning jiyani keladi. O'zi, yaxshi bolamas», - dedi... (Sh. X.) 7. Nega Nazarov ishga qiziqib ketib, bironta aspiranturaga kirishni ham o'ylamayapti? (Sh. X.) 8. Nazarov dardiga doktorlar shifo topishi mushkul ekanini anglagach, Bekat qayerdasan, deb yo'lga chiqdi. (Sh. X.)

15-mashq. O'qing. Assimilyatsiya, dissimilyatsiya va metatezaga uchragan so'zlarni toping.

1. O'nta qo'yni qishdan omon chiqarsa, bitta qo'zi ustama mukofot oladi. (Sh. X.) 2. Amirzodamning so'zlari qulingizga sari toj bo'lsin! Ertagayoq novvoylarga un berib, ochlarga non yoptirib tarqatishni men o'z zimmamga olurman! (P.Q.) 3. Tankka qarshi to'plar, tanklarni yaqin, go'yo mana-mana sapchish bilan bosib, yanchib keta oladigan masofaga keltirib, omonsiz o'tga tutardilar. (O.) 4. "Bo, zaril keptimi!-Lobar labini burdi. - Ishim boshimdan oshib yotibdi". (H.G'.) 5. Menga qara, Hojiakbarri o'g'lisan-a, ertaga bir do'ppi o'rik beraman, mana shu xatti o'qib ber. (S.Ahm.) 6. Elmurod... turli noz-u ne'matlardan yeyotgan sallalilarga telmurdi. (P.T.) 7. "Sayr qilsa arziydigan tun, - dedi Ketrin. - Bevosh kecha, nimasini aytasiz". (E.Xeminguey.) 8. Boshim aynaldi. U yo'gini eslolmayman. (H.G'.) 9. Gulsinbibi qizi Gulnorni po'rasiga o'tqizdi, mahsini yeshtirdi. (O.) 10. Aytmoqchi, kechka yaqin yana kirib o'tarsiz. (J.Abd.)

16-mashq. O'qing. Ushbu gaplarda qanday grafik vositalar qatnashganini ayting.

1. Mayli endi, azizim besh-olti yil emas, besh -olti, kun deyapti-ku? Kep qolar erta-indin. (O.Y.) 2. Qani bir nay bo'lsa, Yo'lchi ham chalsa-da, butun ko'ngil qayg'ularini, oila o'chog'idan ayrilgan g'arib, tanho ruhning to'lqinlarini kechanning sukut to'la og'ushiga qo'ysa... 3. - Shunaqami? U kishi ham diplom yoqladilarmi? - dedi Otaqo'zi kesatib. 4. Ona yerim - oltin tuprog'im. 5. "Ie, Hoji aka, sizga dori berish esimdan chiqibdi-ku, yuring!" - dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi. (A.Q.) 6. Kampirlar bir-biriga qarashdi va hamma birdan: - Nega, nega bo'lmas ekan!- dedi. - Bo'lsa nega indamaysizlar? Qani, To'xta xola, gapiring! (A.Q.)

17-mashq. O'qing. Orfoepik me'yorga mos holda berilgan so'zlarni o'qing. Har bir so'zning orfografik shaklini yozing, talaffuzi va yozilishidagi farqini izohlang.

Bangkir, botinka, ko'ngilchang, mungqaymoq, to'ngka, esangkiramoq, sho'xchang, danggasa, boxcha, denggiz, ko'langka, qizilo'nggach, shtanga, shinggil, janggavor, banggi, quloxchin, qizixchilik, oxshom, zixna, to'xson, jinggalak, soxchi, go'shangga, vaxt, vaxtincha, o'xtalmoq.

18-mashq. O'qing. Avval sirga'luvchi, so'ngra qorishiq j undoshini ifodalovchi harf ishtirok etgan so'zlarni ajratib, ularni ikki ustun shaklida yozing.

Jasur, gijda, jamoat, Jabra, jabr, jirafa, daraja, jumla, jadval, jandarm, abajur, anjir, journalist, zotiljam, ijozat, ijobiy, passajir, mavj, majlios, morj, projector, reja, hajv, shajara, falaj, injener, javob, jo'yak, jurnalxon, Jeneva, erjim, tajriba, iskanja, ajdar, mujda.

Sirgaluvchi j	Qorishiq j

19-mashq. O'qing. So'zlarni qaysi tamoyilga asoslanib yozilganini izohlang.

1. - Shu sababli, biz o'z mustaqilligimizni qanday qiyinchiliklar bilan, va qanday sinov va suronli kurashlar bilan qo'lga kiritganimizni yana bir bor eslashimiz o'rinli, - deb o'ylayman. (I.Karimov.) 2. Ochiq derazadagi tip-tiniq osmonning bir chekkasi ko'rinib turardi. (O'.H.) 3. Berendik tog'a pulni ayamadan o'zini hasharotlar kolleksiyasini straxovaniya ham qildirib qo'yar edi. (Vern Juyel.) 4. Biz **“Adolat-qonun ustuvorligida”** degan hayotiy tamoyilga qat'iy amal qilib yahashimiz zarur. (I.Karimov.) 5. - Ikkalamiz shu yerlarda sigir boqardik, - u birdan kulib yubordi, - Alimardon o'shanda ham shayton edi... (O'.H.) 6. Ichkari qorong'iroq bo'lgani uchun Alimardonning yuzini aniq ko'rolmasa ham, uning karavot yonida tik turgancha rubob chalayotganini ko'rdi. (O'.H.) 7. Oyoqlari tagida dumaloq bo'lib ochilib turgan fok yelkani, tepasida esa fokmarsel yelkani shamolday yoyilib yotar edi. (Vern Juyel)

20-mashq. O‘qing. Fonetik va morfologik tamoyil asosida yozilgan so‘zlarni toping va izohlang.

1. Bundan keyin yolg‘on gapiradigan bo‘lsang, bilib qo‘y, men oyingga o‘xshab og‘rimaydigan qilib urmayman-a!.. (A.Q.) 2. Kechalari osmonga boqasan-u men yashaydigan, mening kulgim yangrayotgan yulduzlarning barchasi jilmayib kulayotganini ko‘rasan. (A.S.Ekzyuperi.) 3. Umuman olganda, milliy valyuta davlat mustaqilligining asosiy belgisi hisoblanadi. (I.Karimov.) 4. Hamroyev Hamdamning qulog‘idan cho‘zib, o‘ziga qaratdi. (A.Q.) 5. Shunday bo‘lgandan keyin majlisga jiddiy tayyorgarlik ko‘rib borilmasa bo‘lmaydi. (A.Q.) 6. Mana bunday qilib: qog‘ozga qancha yulduzim borligini yozib chiqaman-da, keyin shu qog‘ozni tortmaga solib qulflab qo‘yaman. (A.S.Ekzyuperi.) 7. Dadam ishdan kech keldi. (A.Q.)

21-mashq. O‘qing. Qismlari vertikal chiziqlar bilan ajratib berilgan so‘zlarni imlo qoidasiga muvofiq (qo‘shib, ajratib yoki chiziqcha bilan) yozing.

Oy/bolta, tosh/baqa, nim/pushti, orzu/umid, dov/daraxt, afsus/nadomat, oyoq/osti, bo‘lar/bo‘lmas, bir/zumda, bir/tomonlama, boy/o‘g‘li, atir/gul, azob/uqubat, ayiq/tovon, amaliy/nazariy, umum/ta’lim, dam/badam, beshik/tervatar, arz/dod.

LEKSIKOLOGIYA

1-mashq. O‘qing. Quyida berilgan gaplarni lug‘aviy va grammatik ma’nosiga ko‘ra ta’riflang.

1. –Bir safar men bir kunda qirq uch marta quyosh botishini tomosha qilganman! (A.Ekzyuperi.) 2. –Nonushta vaqtim bo‘lib qoldimi deyman,-dedi u saldan keyin. - Baraka topkur, menga yordam qilarsiz-a? (A.Ekzyuperi.) 3. Anglashimcha, u jahongashta qushlar bilan birga parvoz qilishga qaror bergan. (A..Ekzyuperi.) 4. Oxirgi kuni ertalab u odatdagidan ko‘ra boshqacharoq g‘ayrat bilan sayyorasini tozalashga kirishdi. 5. U o‘zining silkinib-silkinib yig‘layotganini Kichkina shahzoda ko‘rishini istamas edi. (A.Ekzyuperi.) 6. Qirol gapini chalkashtirib, hatto birmuncha ranjigandek ham bo‘ldi. (A.Ekzyuperi.) 7. –Agar a’lo hazratlari amr-farmonlarining so‘zsiz bajarilishini xohlasalar, - dedi u, -u holda, menga hozir oqilona farmoyish berishlari lozim. (A.Ekzyuperi.) 8. “Ha, shubxasiz, kattalar juda-juda g‘alati xalq”, deb xayolidan kechirdi yo‘lida davom etarkan. (A.Ekzyuperi.) 9. Nima jiddiy, nima nojiddiy-buni Kichkina shahzoda kattalar singari emas, o‘zicha tushunardi. (A.Ekzyuperi.) 10. Demokratiya ustun bo‘lgan jamiyatda konstruktiv sog‘lom oppozitsiyaning roli juda katta bo‘ladi. (I.Karimov) 11. Hozirgi kunda xalqaro maydonda O‘zbekistonning yuksak e’tirof va obro‘-e’tibor qozonayotgani haqida to‘xtalmasdan o‘tolmaymiz. (I.Karimov.) 12. Mamlakatimiz tarixan qisqa vaqt mobaynida dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egalladi, kerak bo‘lsa, o‘zining mustaqil ovozig a ega bo‘ldi. (I.Karimov)

2-mashq. O‘qing. Quyidagilar orasidan ko‘chma ma’nodagi so‘zlarni aniqlang.

1. Rangi biroz siniqqan, ammo ko‘rkam chehrasida qat’iyat balqib turgan yigit ko‘zlarini chirt yumib uxlab yotardi. (O‘.H.) 2. Anvar uning ko‘zlaridan o‘ziga qadr don bo‘lib qolgan iliq mehrni sezdi-yu quvonib ketdi. (O‘.H.) 3. – Shoir bo‘lolmadingiz! – Muqaddam kulgi to‘la ovozda uning gapini kesdi. Keyin yupatdi: – Mayli, jurnalist bo‘ldingiz-ku! (O‘.H.) 4. Muqaddam ishga kelgan birinchi kuniyoq bu ayol qishloqda “Huri do‘xtir” deb tanilib ketganini, odamlar uni qattiq hurmat qilishini eshitgandi. (O‘.H.) 5. U yengil-yengil qadamlar bilan hovli tomonga yurib ketdi. (O‘.H.) 6. Alimardon hozir uning yuragiga bigiz sanchishidan zavqlanar, ich-

ichidan toshib kelgan kulgisini arang bosib turardi. (O‘.H.) 7. –Xo‘sh, ishlar qalay endi, o‘rtoq direktor? Paxtaning mazasi yo‘q-ku? (Sh. X.) 8. Nazarov taxir, chuchmal suyuqlikni ichib yubordi – hayhot! – yarim soat orasida ko‘zi charaqlab ochilib ketgandek bo‘ldi! (Sh. X.) 9. – O‘zlaringga ma‘lumki,– tabassum bilan boshladi partkom sekretari,– o‘tirishda har xil mavzuda gap ochiladi. (Sh.X.) 10. O‘ktam ularni ko‘rib o‘rnidan turgan edi, o‘zlari qaraguncha chorpoya qoshiga suyanib turaverdi. (Sh. X.)

3-mashq. O‘qing. Quyidagi gaplar orasidan omonim bo‘lgan so‘zlarni toping.

1. Tushga qolmay yukimiz ot aravaga otildi. Ahmad Mirzo bo‘sh kelmay, uning yo‘lini to‘sdi: -Tush pastga (Sh.X.) 2.Yolg‘onchining muruvvati bo‘lmaydi. U har insonga zahar sochadi. (M.Kamol). Muqaddam uning qo‘llari chakkasidagi sochlariga tekkanini sezib, cho‘g‘ tekkanday seskandi. (O‘.H.) 3.Yuziga salqin shabada urildi, orom oldi. (T.Malik) –Bunday qahramon yuz yilda bir marta tug‘iladi. (M.O.) 4. Ana, ko‘chada tramvay, trolleybuslar bor. Bor, toshingni ter! (Sh.X.) 5.Gul bag‘rini nasim tildi- to‘kildi. (U.Xayyom) Muhabbatli, mehrlil, go‘zal, janona tilim, Asl durdona tilim. (B.Yarash) 6.Rahmi kelib bulutning Yig‘lab to‘kar yoshini (E.V.) Tarixiy jarayonlarni yoshlarimiz, butun mamlakat ahli yangi ong hissi bilan qabul qildi. (K.Normatov.) 7. “Alif”laring o‘q qilib ot ular ko‘ksiga (Sh.Q.) Shu yerda turib o‘q otaman. (S.A.) 8.Do‘ppaygan qorni lip-lip ucharmish. To‘rt –besh bo‘yra eni qorni kurab yerni ochardi. (S.A.) 9.Keyin telefon trubkasini olib bog‘ni ulashni buyurdi. (S.A.) Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘ (Maqol) 10.Amudaryo suvlaringdan o‘tolmayman. (A.Sobirov) Dov-daraxt, o‘t-o‘lan xuddi yer kabi oltin tus oladi. (O‘.H.)

4-mashq. O‘qing. Quyidagi gaplar orasidan sinonim so‘zlarni topib, sinonimik qatorni hosil qiling.

1. Bu ulkan lashkarning xatti-harakatlari go‘yo bulutdagidek aniq bir qoidaga bo‘ysunardi. (A.Ekzyuperi.) 2. Shimoliy qutbdagi yagona fonusni yoqishi lozim bo‘lgan charog‘bon bilan uning Janubiy qutbdagi hamkasbiga hammadan ham mazza edi. (A.Ekzyuperi.) 3. U fonusini yoqqan paytda go‘yo yana bir yulduz chaqnagandek, yoki yana bir gul ochilgandek bo‘ladi. (A.Ekzyuperi.) 4. Bir marhamat qiling, quyosh botsin, deb farmon bering. (A.Ekzyuperi.) 5. Kechalari osmonga boqasanu men yashaydigan, mening kulгим yangrayotgan

yulduzlarning barchasi jilmayib kulayotganini ko‘rasan. (A.Ekzyuperi.) 6. Agar sen meni qo‘lga o‘rgatsang, qorong‘I turmushimga nur kirardi. (A.Ekzyuperi.) 7. Bir lahzadan keyin ko‘z o‘ngidagi narsalar tag‘in siyrak tumanlik ichida yo‘qoldi-yu, yana alahlay boshladi. (O‘.H.)

5-mashq. O‘qing. Gaplar tarkibidagi antonim so‘zlarni aniqlang.

1. Xullas, g‘am bosganda yig‘lamagandan yig‘lab o‘lgan yaxshi emish!.. (O.Y.) 2. Shu boisdan ham sevishganlar odamlarning nazariga tez tushadilar. (X.Do‘stmuhammad). 3. Yana bilginki, tashqi dushmandan ham ko‘ra ko‘proq ularning aravasiga minganlar yomon. (O.Muxtor) 4. Demak, bu tun o‘ylanadi, reja tuzadi. (T.Malik) 5. Uch kun safarda bo‘ldim. (X.Do‘stmuhammad) Nilufar lablari pirpirab, sekin burildi-da, olisroqda turgan yashil “Volga”ga qarab ketdi. (O.Y.) 6. Odamning yaxshi yomonligi boylik-kambag‘allikka qaramaydi. (O.Muxtor) 7. Shunda, to‘rimda o‘tirmish bir katta ko‘zlarini bet-boshim lo‘q etdi. (T.M). 8. Qilich ikkinchi piyoladagi choyni ichib ulgurmay eshik ochilib, jussasi kichik, eti ustixoniga yopishgan, qaldirg‘och mo‘ylabi o‘ziga yarashgan odam ko‘rindi. (T.Malik) 9. – Juda xokisorsiz-da, ustoz. Betayin jiyni qidirish bir, katta boshingizni kichik qilib... (O. Muxtor) 11. – Shu gapingga noma‘qulni nonini yebsan! Olib tush pastga! (T.M.) Xiyobonning ikki tomonidan ikki to‘p kishi baland tovushda gapirib, kela boshlashdi. (O.Muxtor) 12. Qoramtir, keng dala etagida traktor turibdi.(Ch.A.) 13. Ular tor ko‘cha boshidagi kattakon xarsangtosh oldida xayrlashdilar. (O‘.H.) 14. Buning ustiga dala, toza havo, tog‘asi bilan ovga chiqishi mumkin. (O‘.Um.) 15. Nega desangiz, qipchoq degan iflos barchani ham jonidan to‘ydirdi,-dedi va nosqovog‘ini qoqa-qoqa bitr otimini tilining tegiga tashladi. (A.Q.)

6-mashq. O‘qing. Antonim so‘zlarni juftlang va ular ishtirokida gap tuzing.

Yaxshi, urush, xafa, avval, yo‘g‘on, kecha, ilgari, ozg‘in, tinchlik, qora, ingichka, keyin, yolg‘onchi, xursand, dushman, yomon, bugun, hozir, qisqa, oz, keng, yer, kun, qari, semiz, rostgo‘y, uzun, ko‘p, tun, yosh, tor, osmon, do‘st, oq.

7-mashq. Katakchalarni to‘ldirib leksik birlikning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turini yozing.

Leksik birlik	Ma’nodoshi	Zid ma’nodoshi	Shakldoshi (necha turkumda)	Paronimi	Variantdoshi

8-mashq. O‘qing. Gaplar tarkibida qo‘llangan paronim so‘zlarni toping va ma’nolarini izohlang.

1. Mana shu uch buyuk qadriyatni xalqimiz asrlar davomida hamisha e’zozlab kelgan. (I.Karimov) 2. Naql qilishlaricha, bir yigit yov qo‘liga asir tushadi. (Ch.A.) 3. Vertolyot Ola Mo‘nguning oq qorli, ko‘k muzli dovonidan oshib o‘tib, bulutlar ortida ko‘zdan g‘oyib bo‘lgandan keyin ham Akbar yana anchagacha o‘ziga kelolmay, qalt-qalt titrab turdi. (Ch.A.) 4. 1409-yilda Durbek o‘zining «Yusuf va Zulayho» dostonini tugatadi va alohida devon sifatida turkiy xalqlar orasida tarqalib ketadi. (M.Shoxonov) 5. Ot egar-abzali og‘ib, oyoqqa turdi. (Ch. A.) 6. Sizning har bir so‘zingiz biz uchun tilladan afzal. (O.) 7. Ona quyosh dastlab qaldirg‘och qanotiga o‘xshab ko‘rinadi-da, zum o‘tmay tog‘ning yassi cho‘qqisida qip-qizil mis tovoqday tovlanib, vohaga ajib bir zar to‘kadi. (T.Murod) 8. – Ana endi, quyoshda mazza qilib, tovlanib yotamiz. (T.Murod) 9. Onamiz qalb amri bilan paxtakorlarga yordam bergich onaxon bo‘lib surat tushar bo‘ldi. (T.Murod). 10. Buxoro amiri dorga torttirgan ziyo ahli orasida Shoakbar Zunnuniy ismli zotning buyuk salohiyat egasi bo‘lgani haqid atarix kitoblarida bir qancha satrgina bor. (T.Malik) 11. O‘n yildan beri kichik ilmiy xodimlikdan bir enlik ham siljimabdi. (T.Malik) 12. – Bundan ellik yil burun Jazoirda yashar, davra ko‘rgan, erka, bedard edim. (O.Muxtor). 13. Zelixon sof ko‘ngilda to‘yona bergan bo‘lsa-da, gaplaridagi ohangda biroz manmanlik, minnat sezilgan edi. (T.Malik) 14. Oqpodsho qamchi sopini Ibodin soqov peshonasiga nuqilaydi. (T.Murod) 15. – Ollohdan qo‘rqinglar, bunday bema’ni urushga bel bog‘lashdan tiyilinglar. (T.Malik) 16. Loy urish

oson, loy olib berish qiyin. (T.Murod) 17. Asar bugungi kitobxonni ham hayajonga solishi, hayot va muhabbat degan sehrli narsa haqida o'ylashga undashiga umid qilaman. (O'.H.) 18.Undosh tovushlar tizimi tilda konsonantizm deb yuritiladi. (M.Hamrayev). 19. Derazamning ro'parasida bir tup daraxt yaproqlari oltin tusda sarg'ayibdi. (X.D.) 20.Yana bir payt tanbur chalganimdan keyin, yana og'zini qulog'im tubiga keltirib: -Endi bas qilsang ham bo'ladi,-dedi. (S.Ayniy)

9-mashq. O'qing. Quyidagi so'zlarning paronimlarini topib, paronimik juftlik hosil qiling.

Sig'im, sof, undosh, bob, sutxo'r, sirop, soliq, tanbur, siqim, tub, urush, amr, tong, daho, undash, so'qmoq, sop, fol, dovon, abzal, sudxo'r, enlik, tang, suqmoq, daha, urish, solih, devon, afzal, tup, bop, serob, amir, pol, ellik, tambur.

10-mashq. O'qing. Berilgan so'zlarni o'zbek tili lug'at tarkibiga ko'ra guruhlarga ajrating.

Anhor, asbob, bahor, bobo, dazmol, dehqon, duovit, elektr, eman, foto, gul, nihol, shamol, cho'l, qor, amma, afsona, guruch, qaychi, tog'ora, siz, qizil, sakkiz, go'zal, qattaq, tog'a, yulduz, daryo, men, o'n, loykaster, qul, taxya, lizing, o'jak, non, ketmon, oq, farzand, sariq, bo'ron, randa.

11-mashq. O'qing. Quyidagi gaplar tarkibidan shevaga xos so'zlarni aniqlang.

1. Ichkaridan Anvar chiqdi. Nima bo'layotganini anglay olmay serrayib turdi. (E.S.) 2. Sen opang Jumagulning tob o'zisan...(J.Sh.) 3. – Ot jo'q ekan-da, - dedi sherigi afsuslanib. – Jaxshi otdan ham qiymat bo'ladi. Jur, ol, chig'ayiq. (P.Q.) 4.Oldindagi moshin qayoqqa yursa, biz ham ashaqqa yurovramiz. Aqqa-baqqa qaramasdan yurishasanlar, deb buyurishgan. (T.Malik) 5. Bundaychikin polvonni yana qaytib davraga yonoshtirmaslik kerak. (T.Murod) 6. Yigit bilmas edi, shuning uchun bo'lsa kerak, katta chiroyli ko'zlarini javdiratib: - Nevlay, - dedi.(M.I.) 7. Dim yaxshi, men ham jiyanim Bahodirni sog'ingan edim.(J.Sh.) 8. Bizning Tarlonga go'balak doridi.(T.Murod) 9.Hamza og'a, karvich yetmayapti, - dedi maktab binosini qurayotgan ustalardan biri. (J.Sh.)

12-mashq. O'qing. Quyidagi atamalarni qaysi fanlarga tegishliligi bo'yicha guruhlarga ajratib yozing.

Transformator, assimilyasiya, affiks, penitsillin, tenglama, sinepar, leksika, suffiks, arxeologiya, kosinus, bog'lama, kuchlanish, paronim, zoologiya, tok, svarshik, amper, konus, volt, streptotsid, kesim, qarshilik, metr, kub, qofiya, turoq, to'rtburchak.

13-mashq. O'qing. Quyida berilgan so'zlarni o'z va o'zlashgan qatlamga ajratib yozing.

Ma'naviyat, hosil, hukumat, qo'l, ko'z, bosh, tosh, bir, yuz, ko'k, kuy, katta, adabiyot, axborot, avlod, ayol, maktab, maorif, qoshida, kechikmoq, ko'k, yeti, yupqa, chopmoq, baxtiyor, bachkana, ozoda, toza, osmon, traktor, kombayn, raketa, avtomat, o'rtoq, aft, bashara, badjahl, baland, baravar, ovqat, mo'l, buyuk, yonida, teatr, roman, sujet, geometriya, fizika,, hayallamoq, uch, qo'rg'oshin, qumursqa, oltin, yetti, yugurmoq, ulug', baxt, daraxt, daraxtzor, hunar, og'a- ini, ulkan, do'ppaslammoq, avra-astar, bazm, chehra, aziz, azim, ayyor.

14-mashq. O'qing. Gaplar tarkibidagi jargon so'zlarni topib, ma'nolarini izohlang.

Bu qora er yutkurning yo'rg'a chiqarishini yetti uxlab tushida kim ko'ribdi. (H.H.) 5. Elchin, bratan, men shu yerda kutib turayinmi? (T.Malik) Gapni aylantirmang. Yog'liq joy. Yakan katta bo'ladi! («Mushtum» jur.) 3. Saqichini og'zidan olib qo'yib, mantini ustiga-ust tushirayotgan Alibek: - Neshtyak, - dedi. (P.Q.) U zavodni eplay olmaydi. Qurug'idan tortishga berilib ketibdi. (T.Malik). 8. – Patsanku bu, bo'sh kelish yo'q, - dedi G'ilay mensimagan tarzda. (T.Malik) 1. Tavba! Eshon "gardkam" deb oshiq otadimi, a? (O.) Yigit: – Vey, paxan, uylar nishtyak-ku, a? Qoyilman, erkak, qoyilman, gap yo'q! – deb so'rashmoq uchun qo'l uzatdi. (T.Malik)

15-mashq. O'qing. Eskirgan so'zlarni aniqlang.

1. "Musulmonqul Normuhammad qushbegiga 5000 sipoh qo'shib Toshkand ustiga jo'natgan!" (A.Qod.) 2. Tilmoch bu buyruqni Zebiga tushuntirib berdi. (Cho'lpon) 3. Xonimizg'a qarshi bosh ko'targan Aziz parvonachi va o'z otasining vakolatlari bilan Marg'ilon kelib, bu yerdagi fuqarolarni ham xon janobig'a qarshi oyoqlandirmoqchi bo'lg'an. (A.Qod.) 4. U egniga yangi zarbof to'n kiygan, belini og'ir kumush kamar bilan bog'lab, boshiga kokil osilgan dubulg'a qo'ndirib olgandi. (O.Y.) 5. Qobil boboning kampiri yig'idan to'xtab, ellikboshini duo qilib ketdi. (A. Q.) 6. Paranji ostida aybdordan boshqa kishining hozir bo'lishga yo'l qo'ymaslik uchun biz uning yuzuni ochdirishga majburmiz. (Cho'lpon) 7. Kezi kelganda

mahdumning yozlik kiyimlarini ham bir sidra aytib ketaylik: yo'lluk, qizil qalami bo'zdan yaxtak,oq bo'zdan jihak yoqaliq keng ko'ylak [chunki tor bo'lsa yirtiladir] va lozim ya'ni ishton hamda sarpoychan kiyishqa yengilcha sag'ri kashf, ammo salla, qishin,yozin bittta. (A.Qod.)

16-mashq. O'qing. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridagi eskirgan so'zlarni aniqlab, ularni tarixiy va arxaik so'zlar tarzida guruhlarga ajratib yozing.

1. "Ushbu mulohazamiz ham yo'q emas, - dedi mahdum. Modomiki bolani yoshlig'idan o'z farzandimizdek parvarish qildik, endilikda o'zimizga domod ham bo'lsin, deb ojizamizni so'ratg'uchi ko'b oliy nasab xonadorlardan qat'iy nazar qilib kelamiz". 2. "Musulmonqul Normuhammad qushbegiga 5000 sipoh qo'shib Toshkand ustiga jo'natgan!" 3. Turkiston xonlig'i tarixidan xabardor kishilarga ma'lumdirkim, Amir Umarxon oxir umrida o'z saroyidag'i yosh kanizlardan biriga muhabbat qo'yadir. Kaniz yosh bo'lg'anligi uchun uni nikohiga ololmay vaqt kutadir. 4. "Quloq teshish fazl emas, pulni topish hazil emas, Jevak taqish farz emas!" g'avg'o solar taqsirim. 5. Hasanali Otabekning quli. Qullar bilan jiddiy muomalada bo'lmoq, ayniqsa Ziyoshohichilardek odamlarg'a favqulotda bir ish. 6. Har harfiy oning tanimda jon bo'ldi yana, Har lafsiy hayotiy jovidon bo'ldi yana. 7. Ikki yoni sakkiz gazlik qo'rg'on bilan o'ralg'an, kunbotarg'a qaratib qurilg'an Samarqand darbozasi yonida to'plandilar. 8. Qushbegi o'zining yozilib qo'yilgan hukmnomasini qo'lig'a olib o'qishg'a hozirlandi. 9. "Otangiz Azizbekning mushoviri ekan, - dedi Akram hoji - nima uchun uni biroz bo'lsa ham yo'lg'a solmaydir? 10. Xon tomonidan xiroj (zakot,soliq)uchun yuborilgan devon beklarini o'ldirgan.

17-mashq. O'qing. Yangi qatlamga mansub so'zlarni toping. Ularning ma'nolarini izohlang.

1. Endi har bir ota-ona bog'chalarning veb-sayti orqali bog'chaning sig'imi va mavjud bo'sh o'rinlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishishi mumkin. ("Bekajon"gaz.) 2. Gazetamiz e'lon qilayotgan "Oilaviy JEK-POT" megatanlovida ishtirok eting. .. Kuponlarni yig'ib boring. ("Bekajon"gaz.) 3. Prezident tomonidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida muhim ijtimoiy masalalar muhokama qilindi. ("Xalq so'zi"gaz.) 4. Namangandagi ko'ngilochar maskanda ochiq va yopiq suzish havzasi, kichik ctadion, muz saroyi,

to‘rt yuzdusli mehmonxona, yirik attraksionlar, ertakla shaharchasi, savdo shoxobchalari, kutubxona va internet kafe, bouling va fitness klublari, hunarmandlar markazi, amfiteatr, akvapark, va boshqa obyektlar bo‘ladi. (xabar.uz.) 5. Xorijiy investor o‘z mkablag‘lari va mustaqil jalb etiladigan kreditlar hisobidan fotoelektr quyosh energiyasini ishlab chiqarish obyektlarini loyihalashtiradi. (sof.uz.) 6. Xorazmda ham bir qancha qishloqlar “Obod qishloq” dasturi asosida qayta bunyod etilmoqda. (“Xorazm haqiqati”gaz.)

18-mashq. O‘qing. Uslubiy xoslangan va xoslanmagan so‘zlarni toping. Ularni izohlang.

1. Shu sababli, biz o‘z mustaqilligimizni qanday qiyinchiliklar bilan, va qanday sinov va suronli kurashlar bilan qo‘lga kiritganimizni yana bir bor eslashimiz o‘rinli, deb o‘ylayman. (I.Karimov.) 2. Xiyobon chetidagi ariqda suv shildiraydi, betida xazon yaproqlar oqadi, ko‘chada odam siyrak, kunning tafti qaytgan bo‘lsa-da, havoda kishini diqqat qiladigan bir hovur bor. (Sh.X.) 3. Sahar chog‘i qum xuddi asaldek tillarang tovlanadi, unga tikilgan sari o‘zimni baxtiyor sezardim. (A.Ekzyuperi.) 4. Biz “Adolat-qonun ustuvorligida” degan hayotiy tamoyilga qat’iy amal qilib yahashimiz zarur. (I.Karimov.) 4. Anvar oyoqlarining uchigacha muzlab ketganini his qilib, Alimardonning beparvo ko‘zlaridan ma’no qidirib qoldi. (O‘.H.) 5. Alimardon studiya zalining bir chekkasidagi jajjigina stulga o‘tirgancha navbat kutardi. (O‘.H.) 6. –Esingdami, senga oltin boshoq haqida aytgan gaplarim? - u jimib qoldi, oradan sal o‘tgach, tag‘in qo‘shib qo‘ydi. (A.Ekzyuperi.) 7. Sizlarga sihat-salomatlik, ishlaringizga omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman. (I. Karimov.)

FRAZEOLOGIYA

1-mashq. O‘qing. Gaplar tarkibidagi iboralarni toping.

1. Elchi shayxni yerning tagidan bo‘lsa ham topib darhol g‘aznada hozir-u nozir qilish to‘g‘risida Sultondan farmon keltiribdi.(O.Y) 2. Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi. (A.Qod.) 3. Ertaga elning og‘ziga tushadi, unda nima degan odam bo‘lamiz, xalq nima deydi? (S.Ahm.) 5. -So‘zimni yerda qoldirmaslig‘ingizga ishong‘anim vajida,- dedi Og‘acha jiddiy tus olib, -siz bilan bu to‘g‘risida maxfiy bir-ikki og‘iz gaplashmoqchi edim.(A.Qod.) 6.Qani og‘zimga gap kelsa, tilim o‘lgurga kaltak keldi – qo‘ydi. (S.Ahm.) 7. Nazirabonu qo‘lini boshi uzra ko‘targach faryod chekib, o‘zini sozandalar davrasiga urdi. (O. Y.) 8. Devorning shundoqqina tagida, odamni chaqsa, yarim minutda til tortmay o‘ldiradigan bir ilon bo‘ynini gajak qilgancha Kichkina shahzodaga tikilib turardi. (A.Ekzyuperi.) 9. U favvoradan ko‘z uzmay o‘tirar, chehrasi suv ichida aylanayotgan nurlar aksida goh qizarib, goh ko‘karib ko‘rinardi. (O‘.H.) 10. Lekin tabiatan ko‘ngli ochiq kishi bo‘lgani uchun Sodiqni ko‘rib, o‘rnidan turdi. (Sh. X.)

2-mashq. O‘qing. Quyidagi gaplar ichidan iboralarni toping va ma’nosini izohlab, gaplar tuzing.

1. Shundagina u tark etilgan guliga behad achinib ketdi, dilini g‘ussa chulg‘adi. (A.Ekzyuperi.) 2.U umrida faqat bir marta 16-17 yashar mahalida mana shunday yorug‘ kunlarni boshidan o‘tkazgan edi.(O. Y) 3. “Ha, shuning uchun og‘zi qulog‘ida ekan-da!” (O‘.H.) 4. “ Kelganiga ancha bo‘lgan ekan-da...” – Alimardon nima uchun quvonayotganini o‘zi bilmasa ham qizdan ko‘z uzolmay qoldi. (O‘.H.) 4. Alimardon uning har bir harakatini diqqat bilan kuzatar, miyasi g‘uvillab ketgan, chalkash tuyg‘ular ichida to‘lqinlanar edi. (O‘.H.) 5. Muqaddam shiftga tikilgancha yotar, xayoli chuvalashib ketgan, nimani o‘ylayotganini o‘zi bilmasdi. (O‘.H.) 6. Beruniy ko‘nglidagi g‘alayonini bosish uchun mo‘risimon qalpoqchasini to‘g‘irlab boshini xam qildi. (O. Y) 7. Barot chol katta choynakda choy keltirdi, stolning u boshiga qo‘yib, qo‘l qovushtirdi. (Sh.X.) 8. Biroq uning ko‘ngli juda yumshoq edi (J.Vern) 9. Notanish kishi kapitan ko‘prik hasiga qaytdi va kema panjarasiga tirsaklarini tiragancha tag‘in o‘yga cho‘mdi (J.Vern) 10. Negaligini xudo biladiyu dilimni yana qo‘rg‘oshindek g‘ashlik qopladi. (A.Ekzyuperi.)

LEKSIKOGRAFIYA

1-mashq. O‘qing. Quyidagi so‘zlarning ma’nosini “O‘zbek tilining izohli” lug‘ati asosida izohlang. Ularni qatnashtirib gaplar tuzing.

Achitqi, buyuk, bouling, dastur, dehqonchilk, eksport, fusun, gahjina, habib, imkon, insof, ziroatchilk.

2-mashq. O‘qing. Quyida nomlari berilgan lug‘atlar bilan amaliy tanishing. Ularning o‘xshash va farqli tomonlarini tushuntiring.

“Ozbek tilining izohli lug‘ati” , “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”, “O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati”, “Imlo lug‘ati” (maktab o‘quvchilari uchun), A.Hojiyev “o‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”, Sh.Rahmatullayev “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”.

MORFEMIKA, SO‘Z YASALISHI, MORFOLOGIYA

1-mashq. O‘qing. Tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchalar mavjud bo‘lgan gaplarni toping.

1. Kapitan Gul havo o‘zgarishini kutishga majbur edi. (J.Vern).
2. Anhor yuzi sekin-sekin qoraya boshladi. Qayerdadir chigirtka chirilladi.(O‘.H.)
3. Vovvillayotgan ovoz eshitilyapti, shekilli. (J.Vern).
4. Albatta, bu aytilgan gaplar yangilik emas (I.Karimov).
5. U uzun yo‘lakning oxiriga yetib, o‘ng qo‘ldagi bir eshikni ochdi. (Sh.X.)
6. Muqarrar falokat tuyg‘usi tag‘in vujud-vujudimni muzlatib, karaxt qilib tashladi. (A.Ekzyuperi.)
7. Muqaddam sarg‘ish jingalak sochli, serharakat, xushchaqchaq yigitni esladi. (O‘.H.)
8. Bularning barchasi oddiy bir haqiqatni yana bir bor tasdiqlaydi. (I.Karimov)
9. Munira ikkilanmasdan qaror qildi: u ketamiz desa, o‘zi qoladi. (Sh.X.)
10. Alimardon o‘ziga soddalik bilan tikilib turgan do‘stiga qarab, yana ataylab beparvo gapirdi. (O‘.H.)

2-mashq. O‘qing. Quyidagi gaplar tarkibidagi so‘zlarni asos va ko‘makchi morfemalarga ajrating.

1. Quyoshning so‘nggi nurlari qadalgan bulut parhalari shamday so‘nib, shamol asta-sekin tina bordi (J.Vern)
2. Alimardon parparonday yelib ketgan mashinaning orqasidan qarab tishlarini g‘ijiriatib qoldi. (O‘.H.)
3. Baholarni boshqarib turmasdan O‘zbekiston sharoitida bozor munosabatlariga o‘tish qiyin. (I.Karimov)
4. Ular tepani kamardek o‘rab o‘tgan so‘qmoqlarni zinadek bosib pastga tushishdi. (Sh.X.)
5. Quduqdan sal narida ko‘xna tosh qo‘rg‘onning vayronalari saqlanib qolgan edi. (A.Ekzyuperi.)
6. Anvar yumshoq o‘rindiqli kresloni Alimardonning oldiga surdi. (O‘.H.)
7. Bekat kasalxonasining bosh vrachi Qamariddin Shamsiddinovning otasi mashhur tabib o‘tgan. (Sh.X.)
8. Negaligini xudo biladiyu dilimni yana qo‘rg‘oshindek g‘ashlik qopladi. (A.Ekzyuperi.)
9. Kuzatuv postidan yangragan qichqiriqni eshitgan yaxtadagilar kema bortiga tashlanib, g‘arb tomonga tikila boshladilar. (J.Vern).
10. Orqada o‘tirgan Munira derazadan tevarakka tikilib, allanarsalarni o‘ylab borar edi. (Sh.X.)

3-mashq. O‘qing. Tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchasi mavjud bo‘lgan so‘zlarni ajrating.

1. Bu quruqlik yoki biror orol bilan tutashgan burumasmikan? (J.Vern)
2. U kuyovlardek yasanib, yangi kostum-shim kiyibdi.

Ko'kish yaltiroq galstuk taqib olibdi. (O'.H.) 3. G'allaning xarid narxi oshganligi g'allakorlarga taxminan 3 milliard sof foyda keltiradi. (I.Karimov) 4. Xona past, bozorga ochiladigan derazasining bir ko'ziga qog'oz yopishtirilgan, havosi bo'g'iq, achigan non, paypoq hidi kelar, lekin sim karavotlarga yap-yangi guldor ko'rpalar solib qo'yilgan edi. (Sh.X.) 5. Oxirgi kuni ertalab u odatdagidan ko'ra boshqacharoq g'ayrat bilan sayyorasini tozalashga kirishdi. (A.Ekzyuperi.) 6. Anvar oyoqlarining uchigacha muzlab ketganini his qilib, Alimardonning beparvo ko'zlaridan ma'no qidirib qoldi. (O'.H.) 7. Bu fozil odam bo'lib, matematika fanlariga moyilligi zo'r edi. (J.Vern) 8. – Shamshiddinov, bir soatga yaqin shu to'g'rida gaplashdik, xayolingiz mijozlaringizdamidi? (Sh.X.) 9. Negaligini xudo biladiyu dilimni yana qo'rg'oshindek g'ashlik qopladi. (A.Ekzyuperi.) 10. Anvar yumshoq o'rindiqli kresloni Alimardonning oldiga surdi. (O'.H.)

4-mashq. O'qing. So'z yasovchi qo'shimchalariga ko'ra so'zlarni guruhlariga ajrating.

Beodob, baxtli, paxtakor, noinsof, bevafo, guldon, gulla, farzandmand, nodavlat, unumdor, serfarzand, mardlarcha, terim, saylgoh, baodob, gulchi, ustachilik, sersuv, o'yna, ixtirochi, issiq, serdavlat, qatnov, bema'ni, xalqaro, orombaxsh, bee'tibor, bemehr.

Qo'shimcha + so'z	So'z + qo'shimcha

5-mashq. O'qing. Gaplardagi atoqli otlarni aniqlab, guruhlariga bo'lib yozing.

N a m u n a : Xuroson – joy nomi.

1. Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, o'zga xalqlar ibrat ola bilsinlar. (O.) 2. "Toshkent" mehmonxonasi, Navoiy teatri..., yigirma qavatli bino – xammasi xuddi kaftda turgandek aniq ko'rinadi. (P.Q.) 3. Ikki yildirki, Mosh ular xonadonining haqiqiy a'zosi bo'lib qolgandi. (S.A.) 4. Hali u stolni yasatib ulgurmagan ham ediki, cho'pon yigit "Moskvich"da to'rxalta to'la baliq olib keldi. (S.A.) 5. Kasalxona hovlisiga kirishlari bilan mashina to'xtab, Chuvrindi tushib qoldi. (T.Malik) 6. Juldur- juldur Ibodinsoqov chalpak bo'lib uchadi.

(T.M.) 7. -Bo‘riqul, chang‘aroqni yop-e, oftob tushib qoldi! (T.M.) 8. Suv yo‘q, Sharof Rashidovich, suv yo‘q! –dedi. (T.M.) 9. Abdulla chamadonini yerga qo‘yib, rovonga ko‘tarildi. (O‘.U.) 10. Mashhur Yusufjon qiziqning o‘z shogirdi Oxunjon qiziqqa yutkazgan joyi ham shu Mingbuloq bo‘lgan. (O‘.U.)

6-mashq. O‘qing. Matnni o‘qing. Otlarni topib, ma’no jihatidan turini ayting.

1. Ketma-ket uzatilgan chelak va savtlarni keksalar yerga ag‘dardilar, xirmon borgan sari ko‘paydi. (O.) 2. Bir zumda mashinani o‘rmonga olib kirdik-da, pastqam joyga yashirdik. Uning izini ham tekislab tashladik. (T.Rustamov.) 3. Gullar, to‘smang yo‘limni, yellar, tutmang qo‘limni, Namanganlik nozanin yo‘limda intizormish. (H.S.) 4. Sen kuylading va birin-ketin Borlig‘imni chulg‘adi xayol. (H.S.) 5. Xira qilar ko‘zlarining yashini yulduzlarni, Go‘yo quyosh yaqinlashib, qamashtirar ko‘zlarni. (Sh.Rustaveli.) 6. Bobomiz Oqpodsho tarafga ko‘z qirida qaraydi. (T.M.) 7. General Skobelev kun botarda tashrif etadi (T.M.) 8. O‘zbekistonda televizor joriy bo‘ldi. (T.M.) 9. Mashhur Yusufjon qiziqning o‘z shogirdi Oxunjon qiziqqa yutkazgan joyi ham shu Mingbuloq bo‘lgan. (O‘.U.) 10. Ammo ikki yildan beri, otasi kasalga chalinib yotib qolganidan beri kelmagan buvisini juda sog‘ingan edi. (O‘.U.)

7-mashq. O‘qing. Turdosh otlarni yakka va jamlovchi otlarga ajratib yozing.

1. - Davlat uchun qo‘shinning ne darajada kerakli ekanini biz ham bilurmiz, - majlisga qarab gapirdi Navoiy. (O.) 2. Sultonmurod o‘zini chetga olishga tirishsa ham, xalq to‘lqini uni surib ketdi. (O.) 3. Tongda qirga ketgan podalarning kechda ma‘rashib, bolalarini sog‘inib yelib-yugurib qaytishlari qanday go‘zal! (Sh.) 4. Dastani shu yerga tushiraman-u, nari yoqqa borib aravani yana Qoravoyga beraman. (S.A.) 5. Shu asnoda dala yo‘lidan chang va suron bilan paxta karvoni chiqib, katta yo‘lga qo‘shildi. (O.) 6. Hamma ham oshna bo‘lsa, butun kollektiv bir og‘ayni bo‘lsa, qandoq yaxshi. (S.A.) 7. Qancha qishloqlar yaralib, qancha-qanchasi yemirildi, qancha elatlar keldi, ketdi, qanchasi bir umrga turg‘un bo‘lib qoldi. (J.Abd.) 8. Namoz asrga yaqin olomonning g‘azabi asta-asta sovuna boshlab, bir qismi tarqaldi. (O.) 9. Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el qoshida manzur va mo‘tabar bo‘lsin. (O.)

8-mashq. O'qing. Berilgan gaplardan sifatning ma'no turlarini aniqlang.

1. Odam to'g'rilik va mo'minlik yo'li bilangina katta va yop-yorug' yo'lga chiqib oladi. (S.A.) 2. O'sha mayib turna cholning qo'lida shifo topib, yana o'z karvoniga qo' shilganini bilarmikin (S.A.) 3. Mo'minning chog'roqqina hovlisi. Bu yerda hamma narsa uy egasining kamtar hayotiga mos, Oldingi qatorda peshayvon, eski ko'rpachalar solingan. (E.V.) 4. Domla shunaqa ishonuvchan, sodda, laqillatish oson odam edi. (S.A.) 5. Ta'biat qo'pol tushmasa, bu go'zal qiz och ra'no gulning tusida yoki oq-sariq tusda yaratilgan edi. (A.Q.) 6. -Nafasingni sovuq qilma! Qora bo'lsa, o'zimizga o'xshar ekan-da. (O'.U.) 7. Mirrahimov jussasi kichkina bo'lgani bilan tovushi juda yo'g'on va buning ustiga sekin gapirolmas edi. (A.Q.) 8. Poygakdagi karavotda kitob o'qib yotgan Hoji aka degan xasta yo'g'on gavdasiga nomunosib chaqqonlik bilan boshini ko'tarib, ko'zidan oynagini oldi. (A.Q.) 9. Hoji aka dardga bu qadar bardoshli ayoldan ham ko'ra bunchalik vafodor erni ko'rishga ishtiyoqmand bo'lib qoldi-yu, xalatining belbog'ini mahkam bog'lab, shippagini kiydi. (A.Q.) 10. Palata eshigi oldida bizni hindiga o'xshagan qop-qora, katta-katta ko'zlari yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga ayrim minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo'lladi. (A.Q.)

9-mashq. Ko'chiring. Yasama sifatlarni aniqlang. Ularni morfemalarga ajrating. Qolgan sifatlarni alohida yozing.

1. Numonjon yumshoq ko'ngil, qizdekkina yigit ekan. (S.A.) 2. Uning arslonday ko'rkam gavdasi, keng peshonasi, chuqur samimiyat ifodasi bilan to'la yirik ko'zlari... unga yoqadi (O.) 3. Nihoyat Azizbek ham yonidagi 45050 sodiq kishilar bilan qochib, o'rdaga qamalishga majbur bo'ldi. (A.Q.) 4. Xatiga qaraganda vafodor qizga o'xshaydi. (I.Rahim) 5. "O'zingiz ham ilon po'st tashlaydigan gap qildingiz-da",- dedi u xushomadgo'ylik qilib (I.Rahim) 6. Yakka chinor qishlog'i yangi kelgan kishiga ko'rimsizroq, betartibroq ko'rinadi. (O'.U.) 7. Binoyi kiyingan, xushsurat bu yigit kirib kelganida tabib boshining tosh yuragi yumshaganedi. (T.M.) 8. Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi. (Ch.A.) 9. Etagini qistirib olgan, uning bug'doyrang chiroyli oyoq muskullari tarang tortilib, paylari uzulib ketgudek bo'ladi. (Ch.A.) 10. Ochig'ini aytsam, do'xtir zotiga tobim yo'q. (T.M.)

10-mashq. O‘qing. Berilgan o‘zak-morfemalarga sifat yasovchi qo‘shimchalar qo‘shib, sifat yasang.

1. Quyidagi so‘zlardan qo‘shma sifat hosil qiling, yoniga qavs ichida qaysi so‘z turkumlaridan hosil bo‘lganini ko‘rsating va yozilish qoidasini tushuntiring. Xomkalla (sifat-ot). to‘g‘ri, kulcha, jigar, sarv, bodom, yoqa, qiziq, uzun, och, katta, qora, yalang.

2. Sifatlar tarkibini tahlil qiling, ularni morfemalarga ajrating. Madadkor, xayoliy, madaniy, saxiy, salmoqdor, siyosiy, musiqiy, sitamgar, zotdor, tabiiy, jinoiy, falsafiy, xurofiy, jo‘g‘rofiy, quvnoq, oqsoq, g‘ovak, qiziq, iliq, ma‘rifiy, sha‘riy.

11-mashq. O‘qing. Quyidagi gaplarda ishtirok etgan son so‘z turkumiga oid so‘zlarni aniqlang.

1. Otamiz uch kundan keyin qaytib keladi. (T.M.) 2. Uch tillo, beraman, lekin vafotimdan so‘ng Butun mol-u mulkim uning izmiga o‘tar. (V.Sh.) 3. Haqiqatan ham chorak soat o‘tar –o‘tmas Mavlon keldi. (O‘.U.) 4. Ikki kun burun qizi o‘qishga ketdi-yu, qaytmadi. (T.M.) 5. Aytishlaricha, bunday odamlar yuz yilda bir tug‘ilar emish... (O‘.U.) 6. Qisqa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalari tom ma‘noda “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga ko‘tarilmog‘i lozim. (Islom Karimov). 7. Keyinchalik berigi uyning egasi dunyodan o‘tib, xotini ikki go‘dak bolasi bilan qoldi. (Ch.A.) 8. – Shamshiddinov, bir soatga yaqin shu to‘g‘rida gaplashdik, xayolingiz mijozlaringizdamidi? (Sh.X.) 9. Ertakdagi uch og‘a- ini kabi ular uch yo‘l qarshisiga kelib qolgan edilar. (T.M.) 10. Ona itdan ellik-oltmish qadam beridan o‘tdi. (T.M.)

12-mashq. O‘qing. Chama son bilan jamlovchi son qatnashgan gaplarni aniqlang va ajratib yozing.

1. Alkiviad tashrif buyurdi, yigirmatacha ulfati unga hamroh. (V.Sh.) 2. Xudo xayringni bersin, aylanay, kelinimga tegma, o‘rog‘ini o‘rib yuraversin, shusiz ham yolg‘izlik azobini tortib, ikkala xonadonning tirikchiligidan bosh qashirga ham qo‘li tegmaydi! (Ch.A.) 3. Yigirmatacha qadam bosib, orqasiga o‘girildi. (T.M.) 4. – Ikkalamiz shu yerlarda sigir boqardik, – u birdan kulib yubordi. (O‘.H.) 5. Ona itdan ellik-oltmish qadamcha beridan o‘tdi. (T.M.) 6. – Qani o‘rtoq raykom, ikkalamiz mana shularga bir namuna bo‘laylik. (T.M.) 7. Uch- to‘rt oyda eson-omon qaytadi. (T.M.) 8. Xullas, ikkala xonadonning tirikchiligini, ro‘zg‘orini oyim bilan singilcham tebratib

turardi. (Ch.A.) 9. Ertasi saxarlab Doniyor ikkalamiz otlarni xirmonga olib keldik. (Ch.A.)

13-mashq. O‘qing. Gaplar tarkibidagi olmoshlarni aniqlang.

1. Biz ishimizni bilib qilamiz . (T.M.) 2. Ammo shahzoda hech kimga parvo qilmas, o‘z aqliga, o‘z kuchiga mahliyo edi, ko‘p vaqtni otasining taxtida o‘tkazardi. (O‘.U.) 3. Bu bolaning turqi sovuqroq edi. (T.M.) 4. Seningcha bu olmosning bahosi qancha? (V.Sh.) 5. Bari bir bu mening izzat-nafsimga qattiq tegar, yangamni rashk qilardim. (Ch.A.) 6. Dam o‘tmay u kaftlari bilan yassi peshonasini, baroq qoshlari aralash yuz-ko‘zlarini artardi. . (O‘.U.) 7. Shu-shu bo‘ladi-bobomiz dalasi yuzini qaytib ko‘rmas bo‘ladi. (T.M.) 8. Ajab, uyga qachon, kim bilan qaytdi ekan? (T.M.) 9. Seningcha bu olmosning bahosi qancha? (V.Sh.) 10. Ha, chindan ham yangamni hech kimga ravo ko‘rmay rashk qilardim. (Ch.A.)

14-mashq. O‘qing. Quyidagi gaplar orasidan ko‘rsatish olmoshlari qatnashgan gaplarni aniqlang.

1. Men ana ketdi, mana ketdi bo‘lib yotgan edim-da, o‘sha kuni ertalab birov avtobusda yig‘lab ketayotgan bir bolani ko‘rib, mening ukamga o‘xshatibdi-yu, shundan haligiday gap tarqalibdi (A.Q). 2. Bu gap ham uning diliga tugildi. (T.M.) 3. Xo‘sh, o‘sha ellik uch daqiqa nima qilinadi, keyin? (A.Ekzyuperi.) 4. Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! – dedi, – hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni basharti so‘ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so‘nadi. (A.Q). 5. Agar biron kishinikiga mehmon kelib qolsa, hammasi navbatma –navbat chaqirishadi. (O‘.U.) 6. Savodsiz, o‘qimagan Shu menga boshliq,– alam bilan o‘yladi Sodiq.– Men esam oliy ma‘lumotli yurist». (Sh.X.) 7. Bu oyimga juda yoqardi, pishiq bo‘lsin, yog‘ochdan boshqani bilmaydigan otasiga o‘xshamay, ro‘zg‘or ishlariga aralashib ko‘zi pishsin, der edi. (Ch.A.) 8. Seningcha bu olmosning bahosi qancha? (V.Sh.) 9. Jasur kapitan bu dadil bolani yoqtirib qoldi. (J.Vern). 10. Bu – hayot qonuniyati, biz uni inkor etolmaymiz va inkor etishga haqqimiz ham yo‘q. (I.Karimov).

15-mashq. O‘qing. Gaplar tarkibidagi fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zlarni topib tahlil qiling.

1. Pichir-pichir eshitaverib ko‘zim ketadi. (T.M.) 2. Oradan yillar o‘tib, urushda mutlaq g‘olib bo‘ldim, degan to‘xtamga kelib qoldi. (T.M.) 3. UZR, “a’lo hazratingni”deyishim kerak edi, negaki,

xudodan senga marhamat bo'lmaydi... (V.Sh.) 4. Esim qursin, ovqatga unnamay o'tirishimni qara. (O'.U.) 5. – Bo'shashma, kichkina bola, oz qoldi! – deb qo'yardi. Biroq o'zi ham qattiq charchaganidan ovozi bo'g'ilib chiqardi. (Ch.A.) 6. Shu-shu bo'ladi- bobomiz dalasi yuzini qaytib ko'rmas bo'ladi. (T.M.) 7. Negaligini xudo biladiyu dilimni yana qo'rg'oshindek g'ashlik qopladi. (A.Ekzyuperi.) 8. Ochiq derazadari tip-tiniq osmonning bir chekkasi ko'rinib turardi. (O'.H.) 9. Kemada u dengizchilik hunarini o'rgana boshladi. (J.Vern). 10. Bizning shefimiz o'sha aytgan odamingiz bilan Muniraxon to'g'risida gaplashgan ekan. (Sh. X.)

16-mashq. O'qing. Quyidagi gaplar tarkibidagi yasama fe'llarni toping.

1. Kampir yangi ko'rpacha solib, Abdullani o'tkazar ekan, sevinchi ichiga sig'may, shang'illab gapirar, Abdulla esa javob berishga ulgurolmay jilmayardi. (O'.U.) 2. Ikkitasi o'lgudek qo'rqqoq, darrov juftakni rostlashadi. (V.Sh.) 3. Qitir-qitirdan Umida qayta uyg'onib ketdi shekilli, norozi to'ng'illadi. (O'.H.) 4. Zohid xotining amriga bo'ysunib chap tomonga yonboshladi. (T.M.) 5. Endi qo'yib ber, men yashashim kerak. (O'.U.) 6. Darvoqe, bizga o'xshash ashaddiy kissavurlarni ko'proq kun qushlarimas, tun qushlari deb atashsa, yarashadi. (V.Sh.) 7. 1967-yilning jazirama yoz kunlaridan birida Mingbuloqqa kiraverishdagi oq tunukat omli uyning eshigini yosh bir yigit taqillatdi. (O'.U.) 8. Yo'q, oshna, men sendan ayrilib qolgim kelmaydi. (T.M.) 9. Uning quvnoqligi, o'zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. (Ch.A.) 10. Hozir, yuragi qinidan chiqayozgan holda qorong'i bo'shliq sari uchib borayotganda shu so'zlarni esladi. (T.M.)

17-mashq. O'qing. To'liqsiz fe'llar bilan qo'llangan yasama fe'llarni tahlil qiling.

1. Shimoliy qutbdagi yagona fonusni yoqishi lozim bo'lgan charog'bon bilan uning Janubiy qutbdagi hamkasbiga hammadan ham mazza edi. (A.Ekzyuperi.) 2. Onasi necha yildirki, uni uylantirishni orzu qilar, ammo Alimardon unamas edi. (O'.H.) 3. Bu bolaning turqi sovuqroq edi. (T.M.) 4. O'sha kuni havo ochiq, quyosh nur sochmoqda edi. (J.Vern) 5. Orqada o'tirgan Munira derazadan tevarakka tikilib, allanarsalarni o'ylab borar edi. (Sh.X.) 6. Aytishlaricha, bunday odamlar yuz yilda bir tug'ilar emish... (O'.U.) 7. Albatta, bu aytilgan gaplar yangilik emas (I.Karimov) 8. Jamila sarvqomat, bejirim ayol

edi. (Ch.A.) 9. – Alimardon o‘shanda ham shayton edi... (O‘.H.) 10. Oyoqlari tagida dumaloq bo‘lib ochilib turgan fok yelkani, tepasida es fokmarsel yelkani shamolday yoyilib yotar edi. (J.Vern)

18-mashq. O‘qing. Yordamchi so‘zlarni turkumlarga ajrating.

Biroq, qarab, chunki, faqat, bilan, hamda, uchun, xuddi, ba‘zan, ya‘ni, sari, nahotki, kabi, agar, yolg‘iz, balki, singari, xolos, garchi, negaki, qadar, ko‘ra, na-na, bo‘yi, lekin, so‘ng, ilgari, bo‘lak, mabodo, axir, goh-goh, hatto, lim, evoh, orqa, tomon, ham, yoki.

Ko‘makchi	Bog‘lovchi	Yuklama

19-mashq. O‘qing. Ko‘makchilarni toping, ko‘makchilar o‘zi bog‘langan so‘z bilan qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelganini belgilang.

1. Gulnor ota-onasi siqig‘i ostida boyga turmushga chiqishga ko‘nikkandir. (O.) 2. Xolboy surnaychi ikkita doirachi bilan mumtoz musiqalar tarona etdi. (T.M.) 3. Ertasiga ertalab Usmon aka bilan uchrashdim. (O‘.U.) 4. Ertasiga Mastura haqida yana bir ko‘ngilsiz gap eshitdik: bechoraning tomog‘idan hech narsa o‘tmasligi ustiga qorniga tez-tez suv to‘planar ekan. (A.Q.) 5. To‘g‘ri, partiyaning talabi biz uchun qonun! (T.M.) 6. Xo‘sh, biz uchun buyuk o‘lja, shonli bir zafar- Emasmi bu o‘zing ayt-chi, aziz birodar? (V.Sh.) 7. Uning quvnoqligi, o‘zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. (Ch.A.) 8. Ajab, uyga qachon, kim bilan qaytdi ekan? (T.M.) 9. Otaginam, men, mol-dunyo uchun olishmadim. Mol-dunyo hirsidan o‘zimni hamisha saqlab keldim. (T.M.) 10. Amaki, Hoji akamga salom ayting, – dedi va ufqda kutib turgan Akramjonga tomon ot qo‘yib ketdi. (A.Q.)

20-mashq. O‘qing. Bog‘lovchilarni topib, ularni turlarga ajrating.

1. Qamishlar orasida goh boshi ko‘rinar, goh suvga sho‘ng‘igandek yo‘q bo‘lib ketardi. (S.A.) 2. Shaharga qaytganimizdan keyin Masturaning omonatini topshirish uchun Hoji akani topdim, lekin salomini topshirolmadim: Hoji aka bechora qazo qilgan ekan. (A.Q.) 3. Uy keng va chiroyli bo‘lib, hamma devori

tokchalardan iborat edi. (O‘.U.) 4. Na ko‘kning fonari o‘chmasdan, na yulduz sayr etib ko‘chmasdan... (Uyg‘un) 5. Xullas, ikkala xonadonning tirikchiligini, ro‘zg‘orini oyim bilan singilcham tebratib turardi. (Ch.A.) 6. Bir zo‘r otash, bir zo‘r alanga, Ikki qalbga tutashgani rost (H.Olimjon) 7. Uning qo‘shig‘i dam eshitilib, dam yo‘q bo‘lib ketar edi (S.A.) 8. Otabek ko‘zini to‘ldirib binoga qaradi, go‘yo bu qarashda u dunyo malagi bilan vidolashar edi (A.Qod.) 9. U ketishni istamas edi, negaki qishlog‘ining har qarich yeri uning uchun tabarruk edi. 10. Roviylar nasihat qiladilarkim: yo‘lda qaroqchilar mavjudligini bilgan tadbirli sayyoh yolg‘iz yurmaydi (T.Malik)

21-mashq. O‘qing. Yuklamalarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajratib yozing.

1. Xuddi oq yaktak kiygan chavandozga o‘xshaydi. (O‘.Um.) 2. Qishloq o‘rtasidan kesib o‘tgan soyning shovillashi eshitilmas, faqat daraxtzorlar, xarsanglar orasidan buralib-buralib o‘tishi ajib bir manzara hosil qilar edi. (S.A.) 3. Necha kundan beri qidirib yurib, Roziyani endi topgan paytida nahotki birpasgina qarab turmay ketib qolsa? (P.Q.) 4. Bundan buyon sira minmaganim bo‘lsin, necha marta naq uchib ketay-ketay dedim. (O.) 5. Erkaklar xotiniga tilla uzuklar olib beradi, o‘z kiyim-boshini o‘zi eplaydigan xotiningiz borligidan suyunsangiz-chi. (S.Ahmad). 6. - ... Nurmatovni sizlar qancha bilsalaring, men ham shuncha bilaman-da. (A.Q.) 7. O‘n uchga kirgan yoshgina popukday qiz edi. (O.) 8. U faqat bir narsaga idrok etdi – otasining hukmi mutloq to‘g‘ri! (T.M.) 9. “Uy yolg‘iz, faqat To‘ybeka bilan Oysha ona; hollari nima kechdi, nima qo‘ydi, ma‘lum emas.” (A.Qod.) 10. Sog‘ bo‘lganda qanday, naq to‘lishib Rustami Doston bo‘lib ketgan. (S.A.)

22-mashq. O‘qing. Ravishlarni aniqlang, turini yozing.

1. Shu payt hovli tomondan kimningdir tovushi eshitildi. (A.Q.) 2. Oddiygina shunday tanishdik-da, suhbatlasha ketdik. (Liyg‘un). 3. Endi siz qachon hisob berasiz? (A.Q.) 4. Mardlarcha kurashmoq mardlarning ishi. (S.A.) 5. -Xo‘p, -dedim .Ko‘p savdolashmay kirani kelishdik. (O‘.U.) 6. Otaginam, men, mol-dunyo uchun olishmadim. Mol-dunyo hirsidan o‘zimni hamisha saqlab keldim. (T.M.) 7. Boisi, o‘zga tumanlardan polvonlar ko‘p keldi. (T.M.) 8. Bir kuni osmoni falakni qora bulut qopladi. (O‘.U.) 9...Fotihadan so‘ng, Hojar buvi darrov dasturxon yozdi, birpasda choy damlab keldi-da, nevarasining yoniga o‘tirdi. (O‘.U.) 10. Hovlida esa musicha hamon quqular, chars-

chars yonayotgan g‘o‘za poya ovozi unga qo‘shilib g‘alati, orombaxsh ohang kasb etardi. (O‘.U.)

23-mashq. O‘qing. Yasovchi qo‘shimchalar yordamida yasalgan ravishlarni topib, qaysi turkumdan yasalganini aniqlang.

N a m u n a : otalarcha – ot turkumidan yasalgan.

1. Demak, shohga ma‘qullari durust aqcha olganlar, qolganlari kamroq yoki butunlay olmaganlar. (T.Malik) 2. Ularning nima deyayotganlarini bilayotgandek, gunohkorlarcha bosh egib ko‘zlarini yerdan uzmay turaverardi. (S.A.) 3. Men qaytara olmadim, - dedi Abror va kinoyaomuz jilmaydi. (P.Q.) 4. Lekin bugun Rahmonov ochiq gapirgani durust bo‘ldi, men ham ochiqchasiga olishdim. (P.Q.) 5. Sen ham yigitchasiga gapirgin-da, axir! (P.Q.) 6. .-Mayli, ertaga boshqa qilib berarsiz, -dedi Obid aka. (O‘.U.) 7.Yoshlik endigina qanot chiqargan uchirma qushga o‘xshaydi. (O‘.U.) 8. .-Siz bugun-erta mehmonsiz, cho‘chimang. (O‘.U.) 9.Ertasiga ertalab Usmon aka bilan uchrashdim. (O‘.U.) 10.Bir mahal bunday qarasam, ancha joyga borib qolibman. (O‘.U.)

24-mashq.O‘qing. Berilgan ravishlarni qaysi so‘z turkumlardan yasalganligini aniqlang va jadvalga joylashtiring.

Zo‘rg‘a, hali, yayov, birdaniga, tasodifan, ertalab, qo‘qqisdan, qasddan, bukri, mardona, qahramonlarcha, mutlaqo, bahorda, ko‘p, ochiqchasiga, ko‘plab, rasman, javoban, makkorona, oldin, tasodifan, mardlarcha, qayta, ostin-ustin, bafurja, andijonchasiga, ataylab, bag‘oyat, arang, hali zamon, so‘ngra, halitdan.

Olmosh	Son	Sifat	Ravish	Taqlid so‘z	Tub ravish

MODAL SO‘ZLAR

25-mashq. Gaplarni o‘qing. Modal so‘zlarni topib, ma’nosini izohlang.

1. – Balki, bu ajablanarli holni o‘ylab ko‘rgandirsiz, deyman. (T.Malik) 2. Ehson, hech shubhasiz uning yozuvchilik ishidagi kamoloti va o‘qishi qanday ekanini bilmoqchi. (A.Q.) 3. Albatta, bu sog‘ingan qishlog‘i manzaralariga to‘yishdan, yor-birodarlari bilan diydor ko‘rishishdan. (S.A.) 4. – Bilmadim, juda zarur shekilli, «oldingga solib kel» degan ekanlar. (Ch.) 5. Ehtimol, – dedi Otabek va nima uchundir g‘ayri ixtiyoriy bir tebrandi. (A.Qod.) 6. ... Xullas, paxtachiligimizda, xususan, uning seleksiyasida g‘oyat muhim kashfiyot yuzaga kelayotganini, g‘oyat muhim hikmat tug‘ilayotganini his qilib turibman. (O‘.U.) 7. – Demak, mening vazifam ariza ko‘rish bilan daraxt o‘tqazish ekan-da? (Sh.R.) 8. Domla anglayolmadi, shekilli, mirzaning so‘nggi so‘zini savol shaklida qaytardi. (Ch.) 9. – Menimcha, u sizni yomon ko‘rmasa kerak. (A.Q.) 10. Haqiqatan ham, u g‘alati ahvolga tushib qolgan edi. (M.I.) 11. Umuman, tog‘liklarning o‘z o‘jar qonunlari bo‘ladi. (S.A.) 12. – To‘g‘ri, birdan ikki taraf bilan yog‘iylashish yaxshi emas. (P.Q.)

26-mashq. Gaplarni o‘qing. Modal so‘zlarni topib, to‘liq morfologik tahlil qiling.

1. – Yo‘q, domla, bunday emas. Albatta, bu harakat bor, ammo, nazarimda tarqoq. (A.Q.) 2. – Haqiqatan, mirza, dag‘alligim bor, - kuladi boy. (O.) 3. Ehtimol, shu o‘tirish bahonasi bilan fan haqida, uning kelajagi va xilma-xil muammolari haqida bahs yuritilar. (O‘.U.) 5. Ehtimol, juda qiziqdir, o‘rganib olsam bir kun ish berib qolar, deb o‘yladim... (X.T.) 6. Menimcha, bu yolg‘on bo‘lsa kerak. (X.T.) 7. Ehson, hech shubhasiz uning yozuvchilik ishidagi kamoloti va o‘qishi qanday ekanini bilmoqchi. (A.Q.) 8. – Ayniqsa sizning menga saqlag‘ak ishonchingiz tugalganga o‘xshab, o‘zimdan qandog‘ kamchilik o‘tkaniga hayratdaman. (A.Qod.) 9. – Juda yaxshi. Demak, tezlatzin, shunday deb yozing direktorga. (Sh.) 10. Chamasi, barvaqt bo‘lishiga qaramasdan, nevaralari uxlab qolishgan. (O.Y.) 11. – Mehmon ertaga ketadi shekilli, kuzatmaymizmi? (T.Malik) 12. – Mayli, bo‘lar ish bo‘pti. Endi uni kuzatib bo‘lmaydi. (S.A.) 13. – Vatan, albatta. Ammo men... balki qaytib kelolmasman. Kulbamba kitoblarim, loyihalarim qolgan, Tohir jiyan! (P.Q.) 14. To‘g‘ri, G‘ulomjon shu dam kecha ashula aytgan yerida, saman ustida xomush bo‘lib turardi (M.I.)

UNDOV SO‘ZLAR

27-mashq. Gaplarni o‘qing. Undov so‘zlarni topib, ma’no va grammatik xususiyatlarini izohlang.

1. – Hay-hay, tavba degin, qizim!-ko‘zlarini alaytirdi otasi. (O.)
2. – Voy, nega unaqa deysiz! Tavba deng! Sizga nima bo‘ldi? Sizga nima bo‘ldi. (S.A.) 3. «Vodarig‘! Boshimda tag‘in ne savdolar bor?...» (O.Y.) 4. «Ey qo‘ying, boshimni og‘ritmang sizsiz ham dardim oshib-toshib yotibdi», dedim-a?! (O‘.U.) 5. – Voy-bo‘, ariqda suv yo‘qmi, qizim, -deb Shermat o‘rnidan irg‘ib turdi. (O.) 6. O, yo‘q, bunday qalbni ko‘ra bilish uchun bunday qalbgga ega bo‘lish kerak. (M.I.) 7. – Ofarin! juda to‘g‘ri o‘xshatdingiz. Qalay, eksponatlarga boymi... boyitishibdimi? (Sh.) 8. – Eh, attang, attang, qanday beg‘amlilik! – dedi u jahli chiqib. (Sh.R.) 9. Ajabo, o‘shanda umrning eng qorong‘i damlariday tuyulgan, endi bilsa hayotining eng betakror, eng ma’sud onlari bo‘lgan o‘sha kunlar qachon o‘tib ketdi? (O.Y.) 10. – Ha, balli! Siz hamma ishlaringizni o‘sha ilgarigi sur’atda davom ettiraverasiz. (O‘.U.)

28-mashq. Gaplarni o‘qing. Undovlarni topib, ma’nosiga va tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating.

1. – Voy-voy-ey judayam charchadim... dedi kerishib Ra’no va ishpechina yig‘a boshladi. (O.) 2. Aravakashlar «hay-hay», «chup-chup» deya shovqin bilan ko‘chani boshga ko‘tarar edilar. (O.) 3. – E, tejalmay o‘lsin. Dunyoga odam ikki marta keladimi? (S.A.) 4. O, yulduzlar, sehrli yulduzlar! U qirq yil senlarning sirlaringni bilmoq niyatida yashadi, sanoqsiz tunlarni bedor o‘tkazdi. (O.Y.) 5. Hozir uyida. Kecha boruvdim, belini ushlab, sal-pal yuryapti... Voy-vo‘-o‘y... (O‘.U.) 6. – Ajabo! – dedi endi yo‘g‘onlasha boshlagan o‘smir ovozi bilan. – Tog‘ cho‘qqisiga ham zinapoya bilan chiqurlarmi? (P.Q.) 7. – Bay-bay-bay, tishni sindiradi degani rost ekan, lekin mazasi yomon emas. (O.) 8. – Assalomu alaykum! O‘zingizga ham muborak bo‘lsin, Hayotxon. (M.I.) 9. Oh, mening buvijonim o‘zi boshqacha-da. (X.T.) 10. ... Ana u qurumsoqlar-chi, bay, bay, bay... biram ko‘ngli egri – yey-y... baloga uchrasin. (A.Q.) 11. – Ey, la’nati, qachon senga aql bitadi, bu ahillik emas, g‘aribu benavolik. (Sh.) 12. – Oho, – dedi, bola o‘zini tutolmay. Uning yuzlari yorishib, yuragi g‘urur bilan to‘ldi. (Sh.R.) 13. Vo darig‘! Bu ne sinoat? Shaharga borib, o‘g‘lidan xabar olish o‘rniga nega yana uyiga qaytib keldi?

(O.Y.) 14. Zindongami? Eh, u bizning o‘z xonamizku...? Yo‘lin o‘zim xo‘p bilaman, ovora bo‘lmang! Ulug‘bek yo‘q, demak butun shahar zindon-da! Emish-demish, emish-demish! Bay-bay-bay-bay... (M.Sh.)

29-mashq. Gaplarni o‘qing. Undovlarni topib turlarga ajrating. His-hayajon undovlarining ma’nolarini izohlang.

1. – Voy... – dedi Munisxon, so‘rashgani qo‘l uzatib, -shoirlik qulluq bo‘lsin, kecha majlisga borgan ekansiz. (A.Q.) 2. – Obbo, nafsi buzuq sira bu qilg‘ingni qo‘ymading! – dedi ranjib shogirdlardan biri. (O.) 3. – Iya, siz ketmaysizmi, aya? (S. A.) 4. – Shu bo‘y-basting bilan gadolik qilib yuribsanmi? – dedi, qo‘rs ovozda. -Barakallo senday bahodirga! (O.Y.) 5. – Eh, jon qizim, ko‘nglim notinchligini bilsang edi... (Sh.R.) 6. – Assalom, xush kelibdilar, marhabo! – dedi otasiga bukilib salom berib. (O.) 7. – Hoy, birodar, turing, shaharga keldik, deb uyg‘otib, qoldi. (M.I.) 8. – Ey, muhtaram domla! ... – dedi va chetlanib yo‘l berdi. (A.Q.) 9. – «Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar... Uff» (A.Qod.) 10. Rahmat! So‘zimizni yerda qoldirmabsiz. Keling qani? Ey, attang! Shu bahona bilan tanishib olardik. (Sh.) 11. – E, qandingni ur, azamat, o‘zimizda bor ediku, ovora bo‘psan-da. (Sh.R.) 12. Marhabo, ey samovotning oltin elchisi! Necha beling shuncha bukik, charchab qoldingmi? Oh azizim, ming-ming yillar yiroq yo‘llardan yurgan yo‘lchi tolib qolsa, taajjub emas! (M.Sh.) 13. – Voy-bo‘-o‘, yonib ketibsiz-ku, a, cho‘milib chiqa qoling, dedi mehribonlik bilan. (O‘.U.) 14. – Balli, mana endi o‘zingizga keldingiz. Mana bu yigit kishining ishi! (O.) 15. – Ofarin!, yo‘limiz bir, to‘g‘ri gap!-qichqirdi orqadan rus tilini tuzukkina tushunadigan bir usta. (O.)

TAQLID SO‘ZLAR

30-mashq. Gaplarni o‘qing. Taqlid so‘zlarni topib, ma’nosiga ko‘ra alohida ustunlarda yozing.

1. Ona uning qirt-qirt qilib saqol qirishiga qarab ich-etini yeb o‘tirardi. (S.A.) 2. Tanga yoqadigan erta bahor shabadasi g‘ir-g‘ir esib, odam ko‘ngliga allaqanday tuyg‘ular soladi. (S.A.) 3. Javob o‘rniga eshik zulfinlarining sharaq-shurug‘i eshitildi. (O.Y.) 4. Darhaqiqat, o‘rik bu yil misli ko‘rilmagan darajada sergul bo‘ldi, katta-kichik novdalar shig‘il-shig‘il gulga ko‘milib, endigina kurtakdan chiqqan nimjon yaproqlarni ham yashirgan edi. (Sh.R.) 5. Suruvlar g‘uj-g‘uj bo‘lib kelayotganiga qaraganda yoyilib yurgan qo‘ylar emas. (P.Q.) 6. Otin bibi darang-during qilib sandiqni ochdi. (O.) 7. Qizlar sekin shivirlashib piq-piq kulib qo‘yardilar. (O.) 8. – Kishanning kalitini ber! – dedi erkaklardan biri qo‘rqanidan dag‘-dag‘ titray boshlagan saqolli soldatga. (M.I.) 9. Uyiga qaytsa, maktabda duv-duv gap. (Sh.) 10. Saroy qop-qorong‘i tinch uyquda ammo, bu tinchlikni saroy otxonasidagi otlarning kurt-kurt xashak chaynashlari va atrofdagi xo‘rozlarning qichqirishlarigina buzar edilar. (A.Qod.)

31-mashq. Gaplarni o‘qing. Taqlid so‘zlarni topib ma’nosini izohlang. Gapdagi vazifasini tushuntiring.

1. Atrofda piqir-piqir kulgi boshlandi. (A.Q.) 2. Ular to‘rtta edi; undan bundan gangur-gungur gaplashib, birovni tepalik birovni jiyak, birovni gardish tikish bilan mashg‘ul. (O.) 3. Unga jovdirab boqqan Dildorning ko‘zlaridan duv-duv yosh oqardi. (S. A.) 4. Urgut tog‘laridan g‘ir-g‘ir shabada esib turgan, iliq bahor oqshomi edi. (O.Y.) 5. Yo‘lakning oxirida, milt-milt yongan shu‘la ko‘rindi. (O.Y.) 6. Dukur-dukur oyoq tovushlari yaqinlashib, qulf-kalitlarning sharaq-shurug‘i eshitildi. (O.Y.) 7. Robiya yuzini qo‘llari bilan to‘sib yum-yum yig‘lay boshladi. (P.Q.) 8. Dehqonlar ho‘ng-ho‘ng yig‘lab, ixlos bilan eshitar edilar. (O.) 9. Charx yonida ertadan qora kechgacha o‘tirib ip yigirishga charx g‘uv-g‘uvidan quloqlarini bitirishga majbur qilgan kuch, balki bolalariga bo‘lgan o‘sha mehru muhabbatidir. (M.I.) 10. Onasi qizini ko‘ksiga bosib piq-piq yig‘ladi. (M.I.) 11. Kun botishga yaqin sal dim bo‘lib turadi-da, keyin g‘ir-g‘ir shamol esib qoladi, kunduzining butun xordig‘ini chiqarib yuboradi. (Sh.) 12. U hamon dag‘-dag‘ titrar, nazarida mudhish bir chohga qulab tushayotganday tuyular, lekin endi to‘xtab, orqaga qaytishning iloji

yoʻqligini ham sezardi. (O.Y.) 13. – Qoyil qildingiz! – dedi koʻzi jiq-jiq yoshlanib. (Oʻ.U.) 14. Qizning yuragi duk-duk urardi. (O.)

32-mashq. Gaplarni oʻqing. Mustaqil, yordamchi soʻz va alohida olingan soʻzlarni aniqlab, toʻliq morfologik tahlil qiling.

1. Osmon koʻm-koʻk. Unda-bunda suzib yurgan oq bulut parchalari goʻyo qishdan qolgan xiralik gʻuborni artib yuborganday. (A.Q.) 2. Madrasa talabalari orasida hatto yigirma-yigirma besh yil mobaynida matonat va ijtihod bilan tahsil qiluvchilar borligini aytdi. (O.) 3. -Qanaqa begʻam bolasan? Ertaga toʻy boʻlsa-yu, bu tentak allaqayoqlarda daydib yursa. (S. A.) 4. – Gapiring tezroq nima demoqchisiz? – dedi u hansirash bilan. (Ch.) 5. Kishining boshiga tushgan kulfat nechogʻlik ogʻir boʻlmasin, uni sabru, toqat va iroda bilan yengish mumkin. (O.Y.) 6. Biror kasbni chin yurakdan sevib qolsang, uning mashaqqatlari jonga huzur bagʻishlarkan. (X.T.) 7. Avvalo qishning sovuq nafasi seziladi. Soʻng togʻlarning, uning etagidagi qishloqlarning aybini berkitmoqchi boʻlganday qor yogʻa boshladi. (T.M.) 8. E, peshonam buncha shoʻr boʻlmasa? Qaysi gunohlarim uchun menga bunchalik jazo! (M.) 9. ... orqa tarafdagi tut barglari shitir-shitir qimirlab, yer ostidan chiqqandek kutilmaganda Muhammad aka paydo boʻldi. U ariqdan gup etib sakrab oʻtdi-da, bosvoldini avaylab yerga qoʻydi. (Oʻ.U.) 10. Mashina keng yoʻlga chiqdi-yu, yoʻlda tuyaday koʻndalang choʻkib yotgan qumlarga duch kelib, yurishi sekinlashdi. (Sh.R.) 11. Rangli boʻyoqlar bilan ishlangan moʻjazzina suratdagi goʻzal qiz shu payt unga tirik bir odam boʻlib koʻrinadi. (P.Q.)

TESTLAR

TIL TARIXI VA FONETIKA

1. Turkiy tillar oilasi o'g'uz guruhiga kiruvchi tillarni aniqlang.
A) ozarbayjon, usmonli turk B) turkman, qirg'iz
C) uyg'ur, usmonli turk D) tatar, turkman
2. Turkiy tillar oilasi qipchoq guruhiga kiruvchi tillarni aniqlang.
A) ozarbayjon, qirg'iz B) tatar, o'zbek
C) boshqird, yoqut D) uyg'ur, boshqird
3. Quyidagi tillardan qaysi biri turkiy tillar oilasining qorluq guruhiga mansub?
A) tatar B) uyg'ur
C) qozoq D) qoraqalpoq
4. "O'zbek" atamasi ilk bor kimning qaysi asarida ishlatilgan?
A) XI asrda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida
B) XV asrda Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida
C) XI asrda M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida
D) XII asrda Rashiddinning "Mo'g'illar tarixi" asarida
5. Noto'g'ri hukmni belgilang.
A) Qozoq tili turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga mansub.
B) Chuvash tili turkiy tillar oilasining qipchoq guruhiga mansub.
C) Tatar tili turkiy tillar oilasining qipchoq guruhiga mansub.
D) Turkman tili turkiy tillar oilasining o'g'uz guruhiga mansub.
6. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekanligi Konstitutsiyamizning nechanchi moddasida o'z aksini topgan?
A) 3-moddasida B) 2-moddasida
C) 1-moddasida D) 4-moddasida
7. Quyida berilgan tez aytishlarning qaysi birida faqat lablanmagan unlilar ishtirok etgan?
A) To'p-to'p ko'k koptok, har bir to'pda ko'k koptok.
B) Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.
C) O'tkir o'tkir o'roqda o't o'rdi.
D) Hali Vali, Soli sholi o'rdi.
8. yoq (tomon) va o'rtoq so'zlariga qaysi qo'shimcha qo'shilganda asosda fonetik o'zgarish bo'ladi?
A) yoq so'ziga egalik, o'rtoq so'ziga egalik va kelishik qo'shimchasi

B) kelishik va egalik qo'shimchalari

C) kelishik qo'shimchasi

D) egalik qo'shimchasi

9. Tarkibidagi qator kelgan undoshlar til oldi jarangli undoshlardan iborat so'zlarni belgilang.

A) farzand, darz, ranj

B) sabr, hukm, darz

C) zulm, fayz, farzand

D) darz, davr, fayz

10. O'zbek tilining agglyutinativ xususiyati buzilgan so'zni aniqlang.

A) yigitcha

B) o'ynatmoq

C) kitobimning

D) tog'ga

11. Qaysi maqolda fonetik o'zgarishga uchragan so'z qo'llanmagan?

A) O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir.

B) O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir

C) Ko'ngli ochiqning qo'li ochiq,

Qo'li ochiqning yo'li ochiq.

D) Bo'linganni bo'ri yer, ayrilganni ayiq yer.

12. Quyidagi misralarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarda urg'u qayerga tushadi?

Derazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'llib gulladi.

A) oppoq va gulladi so'zlarida ikkinchi bo'g'inga

B) oppoq so'zida birinchi, gulladi so'zida ikkinchi bo'g'inga

C) oppoq so'zida ikkinchi, gulladi so'zida uchinchi bo'g'inga

D) oppoq va gulladi so'zlarida birinchi bo'g'inga

13. Quyida berilgan gapdagi jarangli undosh bilan tugagan yopiq bo'g'inlar sonini aniqlang.

Qadriyat atamasi keng bo'lib, voqelikdagi hodisalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladi.

A) 8 ta

B) 9 ta

C) 10 ta

D) 7 ta

14. Quyida keltirilgan gapda qanday fonetik o'zgarish kuzatiladi?

Mehnat bilan inoqlashsang, tan og'rig'ini ko'rmassan.

A) tovush tushishi va almashishi

B) tovush tushishi

C) tovush almashishi

D) tovush orttirilishi

15. Ikki o'rinda til orqa undoshi qatnashgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) ko'ngil, go'llik B) g'urrak, xayrixoh
C) gulqaychi, xalqum D) halovat, kabutar

16. Tarkibida ikkita fonetik hodisa yuz bergan gapni aniqlang.

- A) Fevral oyiga kelib sovuqning shashti biroz pasaydi.
B) Birovning narsasini so'roqsiz olish gunohdir.
C) O'zbekiston – Vatanim mening.
D) Dam olish kuni bog'ga ko'chat ekkani bordik.

17. 1) sanog'i; 2) tilagi; 3) tarog'i; 4) o'rtog'i; 5) so'rog'i; 6) tuprog'i; 7) sovug'i

Berilgan so'zlarning qaysilarida 2 tadan fonetik hodisa kuzatiladi?

- A) 3, 5, 7 B) 1, 3, 4, 5
C) 2, 3, 5, 7 D) 1, 3, 5, 7

18. 1) bajarmoq; 2) qo'llamoq; 3) bildirmoq; 4) ko'rilmoq; 5) turlamoq; 6) belgilamoq. Berilgan qaysi so'zlarda unlilarning og'iz ochilish darajasiga ko'ra barcha turi bor?

- A) 1, 4 B) 4, 6 C) 1, 2, 5 D) 3, 4, 6

19. *To'y xarjida yuzta boy yapon*

Bir kambag'al o'zbekcha yo'qdir. (E.Vohidov)

Ushbu she'riy parchada urg'u ajratib ko'rsatilgan so'zning nechanchi bo'g'iniga tushadi?

- A) ikkinchi bo'g'iniga B) birinchi bo'g'iniga
C) uchinchi bo'g'iniga D) bu so'z urg'u olmaydi

20. Shunisi xarakterliki, shimpanze oqqushni ko'rganda beixtiyor «suyuqlik» va «qush» ishoraviy belgisini qilganligi, sovuqxonadagi yemishga «kalit – ochish – ovqat» ishoralari bilan murojaat qilganligi aytiladi.

Berilgan gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar miqdori nechta?

- A) 1 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta

21. Qaysi javobda imlo qoidasiga ko'ra noto'g'ri yozilgan so'zlarga ko'rsatilgan?

- 1) yutiqlik; 2) badiiy; 3) ukrain; 4) tassurot; 5) mone; 6) ehtirom
A) 1, 3, 4 B) 1, 3, 4, 5 C) 1, 2, 5 D) 2, 5,

22. Qaysi gapda imlo xatoligi abbreviatura bilan bog'liq?

- A) Aytingchi, ey o'qimishli zod, dunyoda eng jasur kishi kim?

B) Shox maxsus farmon bilan Najmiddinni bosh vazir etib tayinladi.

C) Uning talabalik xotiralari Samdu bilan bog'liq.

D) To'qqiz yil oldin bo'lgan voqealar tez tez yodimga tushdi.

23. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi Qaror qachon qabul qilingan?

A) 1993 yil 2-sentabrda B) 1989 yil 26-oktabrda

C) 1996 yil 1-sentabrda D) 1995 yil 24-avgustda

24. Qaysi qatorda bosh harflar imlosi bilan bog'liq xatolik mavjud?

A) Quyosh atrofida yer bir yil mobaynida bir marta aylanib chiqadi.

B) Navro'z bayrami keng nishonlandi.

C) "O'zbekiston ovozi" gazetasida chiqqan maqola ko'pchilikda yaxshi taassurot qoldirdi.

D) Dehqonlar yerni shudgor qilishdi.

25. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini" (1995) ga ko'ra qaysi qatordagi so'zlarga I, II shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zakdan so'ng tovush qo'shib aytiladi va yoziladi?

A) qorin, o'g'il, singil

B) parvo, obro', mavqe

C) tilak, bek, tayoq

D) Barcha so'zlarga egalik qo'shimchasi to'g'ridan-to'g'ri qo'shiladi.

26. Qaysi qatordagi so'zlarda qo'sh undosh qo'llanishi kerak?

A) mut ... asil, jiz ... illamoq

B) has ... os, qo'sh ... a

C) hij ... alamoq, uv ... at

D) ud ... aburon, tasad ... uq

27. Quyidagi qaysi so'zlarda nuqtalar o'rniga sirg'aluvchi, jarangsiz, lab undoshi yoziladi?

1) a...zal; 2) a...tomobil; 3) sha...qat; 4) sa...do; 5) a...g'on; 6) mu...affaqiyat

A) 1, 2, 3, 5

B) 1, 3, 5

C) 4, 5

D) 1, 2, 3, 5, 6

LEKSIKOLOGIYA

1. Qaysi qatorda metonimiya usuli bilan ma'no ko'chshi ro'y bergan so'z qatnashgan?

- A) Qalam ushladimmi, demak, o'yin bas...
 - B) Bugun bozorda savdo qaynaydi.
 - C) Bu darddan qora boshim oqardi.
 - D) Yuragini ezib turgan tuyg'ular biroz chekinganday bo'ldi.
2. Qaysi qatorda paronimlar qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

- A) Suv jimirlab, ko'zni quvnatib toblanardi.
- B) Ko'ylagi quyoshda tovlanib, husnini yanada ochdi.
- C) Yarqiraydi doim tovlanar,
Oy nuriga cho'miluvchi tosh.
- D) Ochilov O'zini quyoshga toblab yotardi.

3. Qaysi javobda "do'ppisini osmonga otmoq" iborasiga zid ma'noli so'z keltirilgan?

- A) g'azablanmoq B) xursand
- C) xafa D) hayratlanmoq

4. Uch so'z turkumi doirasida shakldosh bo'la oladigan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) tom, yog', dog' B) tush, zang, jo'r
- C) tik, bosh, til D) terma, tom, tik

5. Quyida keltirilgan gapda ma'no ko'chishining qaysi turi qo'llangan?

Rost aytasiz, Maxsum aka, men axir maktabda ishlayman, boshlang'ich sinflar uchun "G'uncha" yaxshi.

- A) metonimiya B) sinekdoxa
- C) vazifadoshlik D) metafora

6. Qaysi qatorda tarixiy so'zlarga misollar berilgan?

- A) elig, ponsodboshi, amir
- B) batsiq, o'z, gavora
- C) ellikboshi, mingboshi, parvonachi
- D) talim, ukush, budun

7. Qaysi javobda faqat omonim so'zlar keltirilgan?

- A) bog'li, bo'sh, qayt B) o'rim, qavat, qadr
- C) qiyiq, qayiq, gul D) bahr, bazm, ivimoq

8. Kuchli so'ziga ma'nodosh bo'lgan frazeologik birlik qaysi javobda berilgan?

- A) oyog‘idan o‘t chaqnaydi
 B) tog‘ni ura talqon qiladi
 C) tekkanga tegib, tegmaganga tosh otadi
 D) do‘ppisini osmonga otadi
9. Qaysi qatorda arxaik so‘zlarga misollar berilgan?
 A) elig, ponsodboshi, amir
 B) talim, o‘kush, budun
 C) batsiq, o‘z, gavora
 D) ellikboshi, mingboshi, parvonachi
10. Quyidagi qaysi so‘zning paronimi ikki xil so‘z turkumi doirasida omonim bo‘la oladi?
 A) yod B) boq C) oz D) shox
11. Qaysi qatordagi so‘zlar tojik tilidan o‘zlashmagan?
 A) chorpoya, muqova, oftob
 B) olov, osmon, chopon
 C) sop, kissa, quyosh
 D) o‘t, navvos, to‘n, cho‘ntak
12. Qaysi qatorda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq xatoga yo‘l qo‘yilgan?
 A) Mashina dovon tepasiga ko‘tarildi.
 B) Kampir bolalarga bir qisimdan mayiz ulashdi.
 C) Bola ikki yoshligidan rovon gapira boshladi.
 D) Lahm go‘shlarni ajratib oldi va rastaga terib sota boshladi.
13. Quyida keltirilgan gapdagi ma’no ko‘chishining turini aniqlang.
 Ehtiyot bo‘lib gapir, bo‘tam, axir oramizda quloqlar yo‘q emas.
 A) metafora B) metonimiya
 C) vazifadoshlik D) sinekdoxa
14. Qaysi gapda sinekdoxa usulida ma’no ko‘chgan?
 A) Halima o‘tkir pichoq bilan qo‘lini kesib olibdi.
 B) Oyim yuzimga uzoq termulib qoldi.
 C) Olov uchqun sachratib yonmoqda.
 D) Yurtimiz kundan kunga chiroy ochmoqda
15. Ibora qatnashgan gapni toping.
 A) U ko‘zlarini katta-katta ochib qaradi.
 B) Hoji xola ko‘zlari ilinib, endi xurrak ota boshlagan edi.
 C) Tilshunoslikning morfologiya bo‘limiga katta hissa qo‘shgan olim edi.

D) Shirin xayollarga berilib, bir zum ko‘zini yumdi.

16. Quyida berilgan gapda ma’no ko‘chishining qaysi turi mavjud?

Bir kosani simirdim.

- A) vazifadoshlik B) metafora
C) sinekdoxa D) metonimiya

17. Agar yaxshiliging seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo‘min ekansan.

Ushbu gapdagi antonim so‘zlar qaysi so‘z turkum (lar) iga tegishli?

- A) fe‘l B) sifat, fe‘l C) ot, fe‘l D) ot, sifat

18. So‘z qo‘llash bilan bog‘liq xato qaysi gap tarkibida mavjud?

A) Shahrimiz nufuzi ikki milliondan oshdi.
B) Qizning ota-onasi, qarindosh-urug‘ining ta’rifini aytib bitirolmaydilar.

C) Ularga imtiyozli tarif asosida xizmat ko‘rsatiladi.

D) O‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q, xirmonda hozir.

19. Ana u “ko‘zoynak” menga hech yoqmayapti-da. Berilgan gapdagi ma’no ko‘chish turini aniqlang.

- A) metonimiya B) metafora
C) kinoya D) vazifadoshlik

20. Quyidagi maqollarning qaysi biri "senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil" ma’nosida ishlatiladi?

- A) "Qush qanotin, er atin".
B) "Tulku o‘z iniga ursa, ujuz bo‘lur".
C) "Suv ichirmasga sut ber".
D) "Ko‘b sukutga qush qo‘nar, ko‘rklik kishiga so‘z kelar".

21. Qaysi qatorda *gullar* so‘zining lug‘aviy ma’nosi to‘g‘ri berilgan?

- A) o‘simlik ma’nosida B) bosh kelishikdagi so‘z
C) ot so‘z turkumiga tegishli D) III shaxs ko‘plik shaklida

22. Samarqand qal’asida bo‘lgan ocharchilik tufayli ko‘plarning yostig‘i quridi. Ma’no ko‘chish turini aniqlang.

- A) metonimiya B) metafora
C) vazifadoshlik D) sinekdoxa

23. Tog‘ning ko‘rki tosh bilan, odam ko‘rki bosh bilan.

Berilgan gapda bosh so‘zining qaysi ma’nosi ifodalangan?

- A) birinchi B) rahbar C) aql D) boshliq

24. Paronimlar berilgan qatorni aniqlang?

- A) qalpoq, tufli, ko‘ylak, nimcha
- B) qattiq-qatiq, kift-kaft, dars-darz
- C) soya-ko‘lanka, o‘t-maysa, tomchi-qatra
- D) mard-mart, podsho-podshoh, shox-shoh

25. 1) aravaning o‘qi – kamonning o‘qi;

2) zambarakning o‘qi – pistoletning o‘qi;

3) kamonning o‘qi – pistoletning o‘qi

Berilgan namunalarda qanday ma‘no ko‘chishi mavjud?

A) 1- metonimiya, 2- vazifadoshlik, 3- metafora

B) 1, 2, 3- vazifadoshlik

C) 1, 2, 3- metafora

D) 1- metafora, 2, 3- vazifadoshlik

26. Berilgan gaplarning qaysi birida tojik tilidan o‘zlashgan bog‘ so‘zi qo‘llangan?

A) Uzumini ye, bog‘ini surishtirma.

B) Yuz qopni bog‘lab bo‘lar,

Yuz og‘izni bog‘lab bo‘lmas.

C) Topgan gul keltirar, topmagan bir bog‘ piyoz.

D) Bu ko‘ringan tog‘lar Asqar tog‘idir,

Oyog‘imda tilla kishan bog‘idir.

27. Qaysi javobda hosil bo‘lish usuliga ko‘ra farqlanuvchi tovushlr orqali paronim juftlik hosil qila oladigan so‘z (lar) ko‘rsatilgan?

1) afzal; 2) adib; 3) hiyla; 4) qayt; 5) darz; 6) tanbur

A) 1

B) 1, 2, 3, 4, 5

C) 1, 6

D) 2, 3, 4, 5, 6

28. Uch o‘rinda shakldosh bo‘la oladigan so‘zlar to‘liq ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

1) bog‘; 2) til; 3) chog‘; 4) qil; 5) to‘p; 6) ort

A) 2, 5, 6

B) 2, 3, 5, 6

C) 2, 5

D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

MORFOLOGIYA

1. Qaysi javobda yasama soʻzlar berilgan?
A) javob berdi, uy tomon B) bexabar, oʻqiy boshladi
C) ikkalasi, senladi D) xushchaqchaq, sotib oldi
2. *Tezlataylik* soʻzida nechta koʻmakchi morfema bor?
A) 5 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 3 ta
3. Qaysi soʻzning faqat koʻmakchi morfemasi shakldoshlik xususiyatiga ega?
A) toray B) qisqich C) terim D) kechik
4. Qaysi yasama soʻz tarkibidagi birinchi qoʻshimcha ot yasovchi qoʻshimcha bilan, ikkinchi qoʻshimcha esa sifat yasovchi qoʻshimcha bilan omonim boʻla oladi?
A) tinchlik B) chidamli C) maqtanchoq D) bilimdon
5. Oʻzbekiston istiqbolini sobitqadamlik bilan barpo etmogʻimiz zarur. Gapdagi yasama soʻzlar sonini aniqlang.
A) 1 B) 2 C) 4 D) 3
6. Otamday rozi boʻl, onamday sevgin,
Men ham senikiman, oʻksik qizingman.
Bagʻringda ming yillik toshlar toʻsigʻin
Yorib chiqayotgan bir ildizingman!
Sheʼriy parchada fonetik oʻzgarishga uchragan nechta yasama soʻz ishtirok etgan?
A) 1 B) 3 C) 2 D) 4
7. Quyida keltirilgan gapda vazifasiga koʻra qanday qoʻshimchalar qoʻllanmagan?
Hind elida bir ajib daraxt borki, kimki uning mevasida yesa, hech qachon qarimaydi va oʻlmaydi.
A) soʻz yasovchi
B) lugʻaviy shakl yasovchi
C) soʻz yasovchi va lugʻaviy shakl yasovchi
D) sintaktik shakl yasovchi
8. Quyida berilgan gapda sodda yasama soʻzlar qaysi soʻz turkumlaridan yasalgan?
Oʻzini sovuqdan qaltirayotgan kabi his qilgan kampir qizi bergan qaynoq-qaynoq choydan ichgach, tanasiga issiqlik yugurdi.
A) ot, feʼl, sifat B) feʼl, sifat
C) feʼl, taqlid soʻz, sifat D) feʼl, taqlid soʻz, ot

9. Quyida keltirilgan she'riy parchada qaysi kelishik qo'shimchasi necha o'rinda belgisiz qo'llangan?

Ota merosini gar istasang, o'rgan ota ilmin,
Ki qolgan mol otadin sahl muddatda tamom o'lg'ay.

A) 1 o'rinda qaratqich kelishigi

B) 2 o'rinda tushum kelishigi

C) 2 o'rinda qaratqich kelishigi

D) 3 o'rinda tushum kelishigi

10. *Uzviy* so'zining yasalish asosi qaysi so'z turkumiga tegishli?

A) fe'l B) ot

C) sifat D) bu so'z yasama emas, tub so'z sanaladi

11. Serdavlat, mansab**dor**, hurmatli bo'lgan on**lar**da sadoqatli qad**rdon**larni yod**ga** o**ling**, ularni noumid qil**mang**.

Ushbu gapdagi ko'makchi morfemalardan nechitasi shakldoshlik xususiyatiga ega?

A) 7 B) 6 C) 5 D) 8

12. Qaysi gapda beshta morfemadan iborat yasama so'z mavjud?

A) O'zligini anglamagan odamlar bilan yangi jamiyat qurib bo'lmaydi.

B) Hammamizning yo akamiz, yo otamiz urushda bo'lgan zamonlar edi.

C) Shu bois u o'ttizinchi yillarning boshida adabiyotdan chetlatilgan.

D) Ona tabiat, donoligingga tan bermay ilojimiz yo'q.

13. Shu-shu ular bordi-keldi qiladilar.

Ushbu gapda nechta mustaqil so'z turkumi qatnashgan?

A) oltita B) uchta C) to'rtta D) beshta

14. Quyda berilgan gaplardagi qirq so'zi haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

1) Andozani aniq qilib qirq. 2) Go'ro'g'lining qirq yigiti bor edi.

3) Motam marosimlari uch, yetti, qirq, yil kabi turlarga bo'linadi.

A) 1-gapda fe'l, 2-gapda son, 3-gapda ot

B) gaplarda qirq so'zining ko'chma ma'nolari qo'llangan

C) 1-gapdagi so'z 2-gapdagiga shakldosh, 3-gapdagiga esa ma'nodosh

D) 1-gapda fe'l, 2-3-gapda son

15. Qaysi gapda sodda yasama mavhum ot qo'llangan?

A) Saxiylik va olijanoblik ulug'vor fazilatdir.

B) Seni hur va ozod kuylayman.

C) Nedin g'amnok ko'rinasiz?

D) U baxtidan sarmast ko'rindi.

16. Qaysi qatorda narsa otlarini yasovchi qo'shimchalar berilgan?

A) -oq, -g'i, -gar, -ak B) -gi, -k, -don, -gich

C) -ma, -boz, -kor, -g'ich D) -indi, -goh, -im, -lik

17. Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli asoslardan tarkib topgan otlar ...

A) qo'shma yoki juft otlar bo'la oladi B) juft otlardir

C) qo'shma otlardir D) takroriy otlardir

18. Qaysi qatorda egalik affiksi qo'shilganda, keyingi bo'g'indagi unlisi tushib qoladigan otlar ko'rsatilgan?

A) o'rin, bo'yin, o'g'il B) bilim, vazir, bog'ich

C) idish, ilik, ayiq D) vakil, voris, do'stlik

19. Atoqli otlarning qaysilari qo'shtirnoq ichida yoziladi?

A) Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon

B) Turkiston gazetasi, Navoiy romani, Farhod va Shirin dostoni

C) Samarqand, Farg'ona, Namangan

D) Orol dengizi, Toshkent dengizi, Kaspiy dengizi

20. Quyida berilgan gapdagi otlashgan sifatlar sonini aniqlang.

Ahmoqlarning yuragi og'zida, donolarning tili esa yuragidadir.

A) 1 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta

21. Quyida keltirilgan gapda nechta yasama sifat mavjud?

Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad – milliy o'zligimizni chuqurroq anglash.

A) 3 B) 1 C) yasama sifat qatnashmagan D) 2

22. Qaysi javobda faqat nisbiy sifatlar berilgan?

A) go'zal, paxtali, yuzaki

B) mazali, sermeva, chiroyli

C) kuzgi, chillaki, ro'molli

D) erksevar, toza, tonggi

23. Qaysi javobda quyidagi gapdagi sifatlar soni va ularning tuzilishiga ko'ra turi to'g'ri ko'rsatilgan?

O'z onamni elas-elas xotirlayman. Ko'zlari tim qora, chiroyli. Uzun-uzun kipriklari qilt etmaydi.

A) 1 ta; takroriy

B) 2 ta; takroriy

C) 3 ta; takroriy va juft

D) 3 ta; takroriy va sodda

24. Orttirma darajadagi yasama sifat qo'llangan gapni aniqlang.

A) Insonning hayot yo'li g'oyat murakkab.

B) Hamma yoq top-toza.

C) Ular uchun eng bexatar yo'l Toshkent edi.

D) Ko'm-ko'k osmonda suzib yurgan paxtadek yumshoq bulutlar yonayotgandek lovullardi.

25. Temur baland qadli, uzun bo'yli, tik qomatli, go'yo pahlavonlar avlodidan bo'lib, keng peshonali, katta boshli, g'oyatda kuchli va salobatli, qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, poychalari semiz, sersoqol, yo'g'on ovozli edi. (Ibn Arabshoh)

Ushbu gapdagi yasama sifatlar qaysi turkum(lar) dan hosil qilingan?

A) ot, fe'l B) ot, sifat C) ot, sifat, fe'l D) ot

26. Qaysi javobda sonlar otlashmagan gap(lar) to'g'ri ko'rsatilgan?

1. Uchalasi qalin o'rtoq.

2. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar.

3. Ikkala kishi darvozadan kirib keldi.

4. Siznikiga yigirmanchida boramiz.

A) barcha gaplarda otlashgan B) 1, 3, 4 C) 3 D) 3, 4

27. Qaysi javobda keltirilgan so'z tarixiy uzunlik o'lchovi hisoblanadi?

A) paysa B) tanob C) yog'och D) dahsar

28. *Shingil, qultum, burda* kabi hisob so'zlari qanday ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi?

A) butunning qismini hisoblash

B) donalab hisoblash

C) to'dalab, guruhlab ko'rsatish

D) chamalab hisoblash

29. Qaysi maqolda qo'llangan son "yarim" so'ziga ma'nodosh bo'la oladi?

A) Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom qil!

B) Yetti o'lchab bir kes.

C) Birni sochsang yerga,

Mingni berar elga.

D) Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug' bo'ladi.

30. Chama son ishtirok etgan gap berilgan qatorni toping.

5) olmoshlar sodda yasama soʻzlar turkumlari yasalishi uchun yasovchi qism vazifasini bajara oladi.

A) 1, 4, 5 B) 2, 4, 5 C) 1, 2, 5 D) 1, 3, 4

36. Qaysi gapda olmosh fonetik oʻzgarishga uchragan?

A) Kimki shoshilmay, aql-u tadbir bilan ish tutsa, u oʻz maqsadlariga oson erishadi.

B) Nima roʻzgʻorga kerak boʻlsa, dadam oʻshani bozordan keltiraverar edi.

C) Har kim oʻz ogʻzining qorovuli boʻlsa, uning nafasi hech qachon boʻgʻilmaydi.

D) Kimki boshqalarga rahm-u shafqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-u shafqat qilmaydi.

37. Qaysi qatorda olmosh gap oʻrnida kelgan?

A) Maftuna guruhimizdagi eng aʻlochi qiz, men ham unga havas qilaman.

B) Toshkent qadimiy va navqiron shahar, u yerda hashamatli binolar qad rostlamoqda.

C) Homid toshni oʻn marta koʻtardi, men ham shuncha koʻtarishni orzu qilaman.

D) Shuni bilingki, urush qurbonsiz boʻlmaydi.

38. Quyida keltirilgan parchada ishtirok etgan qoʻshma feʻllar sonini aniqlang.

Gullar ishq haqida kuylasalar qushlar, sadoqat haqida chugʻurlashib bahs qilishardilar, gullar Nargisga tasalli bersalar, bulbullar chax-chaxlab, Bamburni Gullar bogʻiga chaqirardilar.

A) 1 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta

39. Yasama feʻl ishtirok etmagan qatorni toping.

A) Moʻysafid gullarni shiyponga qoʻyib, mehmonlar bilan koʻrish ketdi.

B) Bir mahal yoʻl kengayib ketdi.

C) Shuni taʻkidlab oʻtishimiz kerakki, farovon hayotga faqat mehnat bilan erishish mumkin.

D) Ishdan kelgach, nari-beri tamaddi qilib, uyiga oʻtib bordim.

40. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson oʻzini, eng avvalo, Oʻzbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan bir hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Fargʻona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. (I.Karimov)

Ushbu gapda ishtirok etgan yasama feʻllar sonini aniqlang.

A) 2 ta B) 1 ta C) 3 ta D) 4 ta

41. Qaysi javobda quyida keltirilgan gapda ishtirok etgan fe'l nisbatlari to'g'ri ko'rsatilgan?

Paxta va zig'ir tolasidan tayyorlangan matolar namlab yoki suv purkab, yaxshi quritmay dazmollanadi.

1) aniq nisbat; 2) majhul nisbat; 3) o'zlik nisbat; 4) orttirma nisbat; 5) birgalik nisbat

A) 1, 2, 5 B) 1, 3, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3, 4, 5

42. Qaysi javobda yozma nutq uslubiga xos bo'lgan fe'lning hozirgi zamon qo'shimchalari keltirilgan?

A) -yapti, -jak, -moqda B) -yapti, -moqda

C) -moqda, -yotir D) -yotir, -jak

43. uqtirilgan, tiklatilgan, qaltiradi, suhbatlashdi

Berilgan fe'llar qaysi nisbatga tegishli?

A) aniq, majhul B) aniq, majhul, orttirma, birgalik

C) aniq, birgalik, o'zlik D) aniq, majhul, birgalik

44. Qaysi javobda faqat qo'shma fe'llar berilgan?

A) hormay-tolmay, olib keldi B) olib turdi, ishlab chiqarmoq

C) yozdi-o'qidi, o'quvchi emish D) sotib olmoq, bayon etmoq

45. Qaysi so'zda -la fe'l yasovchi qo'shimchasi asos qismda ifodalangan asbob bilan bajariladigan harakatni bildirgan?

A) silliqla B) o'g'itla C) egovla D) moyla

46. Sifatdan yasalgan fe'l ishtirok etgan maqolni aniqlang.

A) Qarindoshlaringni yomonlab,

Qaydan tug'gan toparsan?

B) Issiq kiyim tanni ilitar,

Issiq so'z jonni ilitar.

C) Nomardga yalinma,

Bir baloga chalinma.

D) Aqlsiz do'stga kular,

Aqli do'stini suyar.

47. Qaysi javobda harakat nomiga xos bo'lmagan xususiyat keltirilgan?

A) nisbat qo'shimchasini oladi

B) ot bajargan vazifalarda keladi

C) shaxs-son va zamon ko'rsatkichiga ega

D) egalik qo'shimchalarini olib turlanadi

48. Nisbat va bo'lishsizlik shakllari fe'lning harakat tarzi shaklida qaysi qismda kelishi mumkin?

A) faqat yetakchi fe'l tarkibida

B) faqat ko'makchi fe'l tarkibida

C) yetakchi va ko'makchi fe'l tarkibida

D) nisbat qo'shimchasi ko'makchi fe'l, bo'lishsizlik qo'shimchasi yetakchi fe'l tarkibida

49. Quyida keltirilgan gapda ravishning ma'no jihatdan qaysi turi ifodalangan?

Ilgarilar ustalar pichoqqa sop izlab, atay sayg'oq oviga chiqisharkan.

A) maqsad va holat

B) o'rin va miqdor-daraja

B) payt va holat

D) payt va maqsad

50. Qaysi javobda faqat yasama ravishlar keltirilgan?

A) ataylab, tezkor, mardlarcha

B) ochiqchasiga, ancha, qo'qqisdan

C) birpas, dastlabki, birdaniga

D) tonnalab, butunlay, o'zicha

51. Yasama ravishning yetakchi morfemasida unli va birgina jarangsiz undosh qatnashgan gapni toping.

A) Kelajakda yorqin hayotga erishish uchun astoydil harakat qilmoq lozim.

B) Qiz yer ostidan mayin kulib yigitga qaradi.

C) Yaxshilikcha quloq soling gapimga.

D) O'z fikringizni ochiqchasiga bayon etsangiz, tushunamiz.

52. Quyidagi berilgan tez aytishlarning qaysi birida ravish ishtirok etmagan?

A) Norning nordon anori narida.

B) Hali Vali, Soli sholi o'rdi.

C) O'tkir o'tkir o'roqda o't o'rdi.

D) Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.

53. Ravish yasovchi qo'shimcha omonimligi asosida so'z omonimligi vujudga kelgan so'zni toping.

A) hozircha

B) tonnalab

C) terma

D) yigitcha

54. Qaysi javobda payt ravishlari ko'rsatilgan?

1) bugungi; 2) buguncha; 3) hozirgi; 4) hozirgacha; 5) so'nggi; 6) so'ngra

A) 1, 2, 3, 4

B) 1, 3, 5

C) 2, 4, 6

D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

55. Ertasiga ertalab Nayman ona yana yo'lga tushdi. Uyur bu yerdan xiyla uzoqlashib ketgan edi. Izlab, aylanma yo'llardan ehtiyotkorona o'tib, uzoq yo'l bosdi.

Ushbu gaplardagi ravishlar miqdorini aniqlang.

A) 7 B) 8 C) 5 D) 6

56. Holat ravishlari to'g'ri berilgan qatorni toping.

A) birdan, jim, majburan B) dastlab, hozir, bultur

C) asta-sekin, ko'pdan, bugun

D) ataylab, qasddan, erta

57. Quyidagi gapda ishtirok etgan yordamchi so'zlar sonini toping.

Xuddi so'z kabi gapning ham turi va xili, matndagi o'rniga qarab ma'nolari ko'p.

A) 5 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 4 ta

58. Yordamchi so'zlar turkumiga xos birliklarning barcha turi ishtirok etmagan gaplarni aniqlang.

1. Halollik buyuklik sari dastlabki qadamgina bo'lib qolmay, buyuklik va insoniylikning ayni o'zidir.

2. Usmon Nosir nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlari bilan ajralib turardi.

3. Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, gurullab ketdi.

A) 1, 3 B) 2, 3 C) 1, 2 D) 1, 2, 3

59. Qaysi gapda bog'lovchi, ko'makchi, yuklama qo'llangan?

A) Ey farzand, aqli, farosatli va ilm-hunarli kishilar bilan do'st bo'l.

B) Mehmonlar sut-qatiq bilan choy ichib, darhol o'tirgan joylariga uzandilar va aravada urinib kelganlari uchun uzanar-uzanmas uyquga ketdilar.

C) Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko'p ijobiy xislatlarga ega bo'lgan edi.

D) Polvonning qo'li kuch bilan o'ziga tortar, ammo bir qarich ham oldiga siljitolmasdi.

60. Bosh kelishik shaklidagi ismlarga ergashib kela oladigan vazifadosh ko'makchilar qatorini aniqlang.

1) sari; 2) tomon; 3) bilan; 4) bo'ylab; 5) qaramay; 6) sayin; 7) kabi.

- A) 1, 2, 3, 4, 6, 7 B) 2, 4, 5, 6
C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 4

61. Sifatdosh bilan kelgan sof ko‘makchi qatnashgan gapni aniqlang.

A) O‘zligini anglamagan, manqurtlik tomon ketayotgan odamlar bilan yangi jamiyatni qurib bo‘lmaydi.

B) Yaxshi o‘qigani uchun u mukofotlandi.

C) Ba’zilar ovqatlanish uchun yashaydilar.

D) Maktabga bormaganim sababli noxush vaziyatning guvohi bo‘lib qoldim.

62. Vazifadosh ko‘makchi qo‘llangan gapni aniqlang.

A) A.Oripovga adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni berilgan.

B) Qalam-la men to‘qiyman qo‘shiq.

C) Bu ishga qadam qo‘yishdan ilgari bir karra sizning oldingizdan o‘tib, ra‘yingizni bilishga to‘g‘ri keldi.

D) Devor usti yomg‘irdan iviy boshladi.

63. Qaysi javobda keltirilgan vazifadosh bog‘lovchilardan keyin vergul qo‘yilishi mumkin?

A) ammo, lekin, biroq, balki B) -u (-yu), -da

C) -u (-yu), -da, balki D) -u (-yu), -da, -ku, ya’ni

64. Qaysi gapda sof va vazifadosh bog‘lovchi qo‘llangan?

A) Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko‘p ijobiy xislatlarga ega bo‘lgan edi.

B) Ey farzand, aqlli, farosatli va ilm-hunarli kishilar bilan do‘st bo‘l.

C) Polvonning qo‘li kuch bilan o‘ziga tortar, ammo bir qarich ham oldiga siljitolmasdi.

D) Mehmonlar sut-qatig‘-u choy ichib, darhol o‘tirgan joylariga uzandilar va aravada urinib kelganlari uchun uzanar-uzanmas uyquga ketdilar.

65. Qaysi gapda ikki o‘rinda bog‘lovchi qo‘llangan?

A) Polvonning qo‘li kuch bilan o‘ziga tortar, ammo bir qarich ham oldiga siljitolmasdi.

B) Mehmonlar sut-qatig‘ hamda choy ichib, darhol o‘tirgan joylariga uzandilar va aravada urinib kelganlari uchun uzanar-uzanmas uyquga ketdilar.

C) Ey farzand, aqlli, farosatli va ilm-hunarli kishilar bilan do'st bo'l.

D) Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko'p ijobiy xislatlarga ega bo'lgan edi.

66. Qaysi qo'shma gapda ayiruv bog'lovchisi voqea-hodisalarning galma-gal ro'y berishini ifodalagan?

A) Yo urug' aynigan, yoki agrotexnika qoidalari buzilgan.

B) Mashinaning nuqsoni bo'lsa, tuzatiladi yo yana yaxshirog'i yasaladi.

C) Goh qah-qah kulgi ovozi eshitiladi, goh muzika sadosi avjiga chiqadi.

D) U goh yig'lagisi, goh kulgisi, goh butun kechani ostin-ustin qilib qo'shiq aytgisi kelardi.

67. Qaysi javobda kuchaytiruv-ta'kid ma'nosini so'z-yuklamalar to'g'ri ko'rsatilgan? 1) hatto; 2) -ki; 3) axir; 4) faqat; 5) nahotki; 6) naq; 7) -u (yu) ; 8) nihoyatda; 9) -da; 10) ham

A) 1, 3, 5, 10

B) 1, 2, 3, 5, 7, 9, 10

C) 1, 3, 5, 6, 8, 10

D) 1, 3, 4, 5, 8, 10

68. Quyidagi yuklamalarning nechitasi chiziqcha bilan yoziladi?

-chi, -a, -ku, -oq, -mi, -gina, -ey

A) 2 ta

B) 4 ta

C) 5 ta

D) 3 ta

69. Qaysi javobda kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari to'g'ri ko'rsatilgan?

1) -gina; 2) hatto; 3) ham; 4) -ku; 5) nahot; 6) atigi; 7) -yu; 8) g'irt

A) 2, 3, 4, 5, 6, 7

B) 2, 3, 4, 6, 7

C) 2, 3, 4, 5, 7, 8

D) 1, 2, 3, 4, 5, 7, 8

70. Agar -da yordamchisi yuklama vazifasida kelsa, ko'pincha uning o'rniga qaysi yuklamani qo'yish mumkin?

A) faqat

B) hamda

C) ham

D) lekin

71. Berilganlardan kuchaytiruv-ta'kid yuklamalarini aniqlang.

1) -gina; 2) hatto; 3) ham; 4) -ku; 5) nahot; 6) atigi; 7) -yu; 8) g'irt

A) barcha berilganlar

B) 2, 3, 4, 6, 7

C) 2, 3, 4, 5, 7, 8

D) 1, 2, 3, 4, 5, 7, 8

72. Yuklamaning qaysi turlari faqat so'z yuklamalardan iborat?

A) so'roq-taajjub, kuchaytiruv-ta'kid

B) inkor, ayiruv-chegaralov

- C) ayiruv-chegaralov, gumon
- D) o'xshatish-qiyoslash, inkor

73. Fikrni xulosalash ma'nosini ifodalovchi sof modal so'z qatnashgan gapni toping.

- A) Haqiqatan ham, kun issig'I yo'lovchilarni holdan toydirdi.
- B) Avvalo, xaloyiq va har tarafdin kelgan kishilar to'da bo'lishib maslahat qildilar.
- C) Albatta, biz musobaqada yaxshi natijalarni qo'lga kiritamiz.
- D) Xullas, qora kunga asrab qo'ygan bug'doyimiz ham jo'xori ham ko'p edi.

74. Ajratib ko'rsatilgan so'z haqidagi to'g'ri hukmni toping.

Qur-ey! Qur-ey! Jimgina quloq soldi.

- A) taqlid so'z B) undov so'z
- C) mustaqil so'z D) modal so'z

75. Qaysi javobda gumon munosabatini bildiruvchi sof modal so'z berilgan?

- A) ehtimol B) aftidan C) chamasi D) shekilli

76. Qaysi gapda ishonch munosabatli modal so'z ishtirok etgan?

A) Domla, anglayolmadi, shekilli, mirzaning so'nggi so'zini savol shaklida qaytardi.

B) Xo'p, eshoni mirza, xo'p. Albatta, aytaman, albatta. Endi menga ruxsatmikin?

C) Demak, Navoiy asarlari mag'zini chaqishda ilm juda kerak.

D) -Nima bo'lardi: ehtimol, yana so'roq bo'ladi; ishni qaytadan ko'radilar.

77. Qaysi javobda holatga taqlid so'z otlashgan?

A) Namoz g'azabi oshib, dag'-dag' qaltiray boshladi.

B) Rustam samolyotini ko'tarib, hovlining u boshidan bu boshiga g'uv-g'uvlab yugura boshladi.

C) Saxiy quyosh behisob nur taratar, tip-tiniq soy suvining jimir-jimiri ko'zni qamashtirar edi.

D) Uzoqdan bolalarning qiy-chuvi eshitildi.

78. Holatga taqlid so'zlar qaysi qatorda berilgan?

A) tap-tap, g'iz-g'iz, hang-mang B) yilt-yilt, jiq, dik

79. Fikridan qaytarish uchun qo'llanilgan undov so'z qatnashgan gapni toping.

A) Hay-hay, shoshqaloqlik qilmang.

B) Voy-bu, juda mazali ovqat ekan.

C) Eh, yoshlar, sizlar tushunmaysiz-da.

D) Hay-hay, tegma.

80. 1) terim; 2) bog‘lar; 3) ko‘zlar; 4) qaynatma; 5) qovurma

Berilgan so‘zlardan qaysilari ikki xil so‘z turkum doirasida qo‘llana oladi?

A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 4, 5 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 2, 3, 4, 5

TESTLAR JAVOBI

TIL TARIXI VA FONETIKA

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	C	B	D	A	D	B	D	A	B

11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
B	D	B	C	A	A	A	B	A	D

21	22	23	24	25	26	27
A	C	D	A	B	D	B

LEKSIKOLOGIYA

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	A	C	D	A	C	A	B	B	A

11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
D	C	D	A	B	D	C	A	A	C

21	22	23	24	25	26	27	28
A	D	C	B	D	A	A	B

MORFOLOGIYA

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
D	D	B	A	D	A	A	C	C	B

11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
D	C	B	A	A	B	B	A	B	C

21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
B	C	D	C	D	C	C	A	D	C

31	32	33	34	35	36	37	38	39	40
A	B	D	B	A	D	D	C	A	A

41	42	43	44	45	46	47	48	49	50
C	C	A	D	C	A	C	C	D	D

51	52	53	54	55	56	57	58	59	60
D	C	D	C	D	A	A	B	D	D

61	62	63	64	65	66	67	68	69	70
B	C	B	D	B	C	A	B	C	C

71	72	73	74	75	76	77	78	79	80
C	D	D	B	D	B	C	B	A	D

SHARTLI QISQARTMALAR

A.Ekzyuperi- Antuan de Sent-Ekzyuperi
A.N. – Alisher Navoiy
A.Q. – (Abdulla Qahhor)
A.Qod. – Abdulla Qodiriy
“Bekajon” gaz. - “Bekajon” gazetasi
E.S. – Erkin Samandarov
E.V. – Erkin Vohidov
H.H. – Hamza Hakimzoda Niyoziy
H.Olimjon – Hamid Olimjon
I.Karimov – Islom Karimov
I.Rahim – Ibrohim Rahim
J.Abd. – Jonrid Abdullaxonov
J.Sh. –Jumaniyoz Sharipov
J.Vern – Jyul Vern
M. – Mirmuhsin
M.Do‘st. – Murod Muhammad Do‘st
M.I. – Mirzakalon Ismoiliy
M.O. – Mirkarim Osim
M.Sh. – Maqsud Shayxzoda
M.Shoxonov - Muxtor Shoxonov
O. –Oybek
O.Muxtor – Omon Muxtor
O.Y.- Odil Yoqubov
P.Q.– Pirimqul Qodirov
S.A. – Said Ahmad
S.Ayniy – Sadriddin Ayniy
T.Malik – Tohir Malik
T.M. – Tog‘ay Murod
Uyg‘un - Uyg‘un
U.Xayyom – Umar Xayyom
“Xalq so‘zi” gaz. - “Xalq so‘zi” gazetasi
“Xorazm haqiqati” gaz - “Xorazm haqiqati” gazetasi
X.D. – Xurshid Do‘stmuhammad
X.T. – Xudoyberdi To‘xtaboyev
Ch. – Cho‘lpon
Ch.A. - Chingiz Aytmatov

G'.G'. – G'ofur G'ulom
O'.H. - O'tkir Hoshimov
O'.U. – O'ktam Usmonov
O'.Um. – O'lmas Umarbekov
Sh.M. – Shavkat Mirziyoyev
Sh.R. – Sharof Rashidov
Sh.R.Term. – Shafoat Rahmatullo Termiziy
Sh.X.- Shukur Xolmirzayev

MUNDARIJA

TILSHUNOSLIKDAN UMUMIY MA'LUMOT

Soʻz boshi.....	3
Fonetika.....	4
Leksikologiya.....	11
Frazeologiya.....	19
Leksikografiya.....	20
Morfemika, soʻz yasalihi, morfologiya.....	21
Modal soʻzlar.....	31
Undov soʻzlar.....	32
Taqlid soʻzlar.....	34

TESTLAR

Til tarixi va fonetika.....	36
Leksikologiya.....	40
Morfologiya.....	44
Testlar javobi.....	57
Shartli qisqartmalar.....	59

«Ona tili va adabiyot» fanidan mashq va testlar majmuasi /
A. Atajonova. – Toshkent: “BAYOZ”, 2018. – 64 b.

ISBN 978-9943-4898-3-7

UO‘K: 821.512.133

KBK 81.2 O‘zb-5

**ANORGUL ATAJOVA
MUHABBAT JUMANIYOZOVA**

«ONA TILI VA ADABIYOT»

fanidan

MASHQ VA TESTLAR MAJMUASI

Texnik muharrir
Dizayner
Sahifalovchi

Shohruh Botirov
Bahodir To‘xliyev
Bekzod Raxmatov

Nashriyot litsenziyasi: AI №234, 11. 02. 2013.

Bosishga ruxsat etildi: ...

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16.

Times garniturası. Ofset bosma.

Hisob nashriyoti t.: 2,66. Shartli b. t.: 4.

Adadi 150 nusxa. Buyurtma № 17.

“BAYOZ” nashriyotida nashrga tayyorlandi

“BAYOZ” MChJ matbaa korxonasida chop etildi.

Toshkent. Lutfkor 1-tor ko‘chasi, 1-uy.